O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

№ 12 (16418)
2021-YIL
21-APREL,
CHORSHANBA

www.yoshlarovozi.uz · yoshlaroviziuz@mail.ru · @yoshlaroviziuz · @yoshlarovozi

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## BESH TASHABBUS – BESH IMKON




PREZIDENT TASHRIFIDAN SO'NG...

## IMOM BUXORIY TA'LIMOTINI O'RGANGAN YOSHLAR YOMON YO'LGA KIRMAYDI

***Imom Buxoriyning zamondoshlaridan biri Yahyo ibn Ja'far: "Agar qudratim yetsa, Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning umrini ziyoda qilar edim. Mening o'limim bir kishining o'limi bo'ladi. Muhammad ibn Ismoilning o'limi ilmning ketishidir", degan edi. Muso ibn Horun Hammol esa: "Menimcha, Islom ahli barchasi jamlanib, Muhammad ibn Ismoilga o'xshash yana bir kishini yetishtirmoqchi bo'lishsa, eplay olishmaydi", degan edilar.***

Darhaqiqat, bobomiz Imom Buxoriy rahmatullohi alayhini butun Islom olami "Amirul mo'minin fil hadis" – "hadis ilmida mo'minlarning amiri", "Shayxul-islom" – "musulmonlarning ustozi" kabi unvonlar bilan nomlaydi. Bularning barchasi bejizga emas. Ajdodimizning bu darajaga yetishishiga u zotning taqvosi, parhezkorligi va omonatdorligi kabi ko'plab fazilati va hadis ilmiga qo'shgan ulkan va beqiyos hissasi sabab, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Davomi 4-sahifada.

SAYLOV-2021

## PREZIDENT SAYLOVI: TAYYORGARLIK BOSHLANDI

***O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi. Markaziy saylov komissiyasi Raisi Zayniddin Nizomxo'jayev olib borgan majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturi hamda Markaziy saylov komissiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga oid qator nizomlari loyihalari muhokama qilindi.***




Ta'kidlanganidek, mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish yo'lida o'z oldiga buyuk maqsadni qo'ygan Yangi O'zbekistonda Prezident saylovi bu yil yangi milliy saylov qonunchiligi, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq holda, demokratik tamoyillar asosida va butunlay yangi muhitda o'tadi.

Prezident saylovi Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan ilg'or demokratik g'oyalarning amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo'ladi. Mazkur siyosiy jarayonda ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik amalda keng ta'minlanishi uchun uchastka saylov komissiyalaridan to Markaziy saylov komissiyasigacha — barcha darajadagi saylov komissiyalari, hamma saylov tashkilotchilari o'z ishini eng ilg'or demokratik prinsiplar asosida hamda yuksak tashkiliy darajada amalga oshirishini taqozo qiladi.

Davomi 2-sahifada.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI – AMALDA

## YOSH TADBIRKORLAR MUAMMOLARGA DUCH KELMOQDA

### UMRZOQ NEGA KREDIT OLOLMAYAPTI?

*Yoshlarni qiynayotgan muammolarni hal etish maqsadida, ular bilan ochiq muloqotlar, sayyor qabullar o'tkazish an'anaga aylandi. Uchrashuvlarda yoshlar bilan yuzma-yuz gaplashib, murojaatlarini o'rganish, masalalar yuzasidan joyida mas'ul idora va tashkilotlar rahbarlari fikrini tinglash o'z samarasini beryapti. Ammo ayrim hollarda tushunmovchiliklar sabab uzoq vaqt davomida yechimsiz qolayotgan muammolar ham bor.*

*Masalan, Jizzax viloyatining Do'stlik tumani G'afur G'ulom mahallasida yashaydigan Umrzoq Safarov tadbirkorlik qilish maqsadida kredit olish uchun bir yildan buyon harakat qiladi. U yo'llagan murojaatlar ham samarasiz bo'lyapti. Xo'sh, buning sababi nimada?*

Davomi 3-sahifada.



***Mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlar masalasiga bejiz davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani yo'q.***

***Chunki yoshlar mamlakati deya e'tirof etilgan O'zbekiston aholisining qariyb 55 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Ya'ni, 18 millionlik "armiya" davlatimizning eng katta xazinasi, bebaho boyligi, taraqqiyotimiz tayanchi, jamiyatni harakatga keltiruvchi katta kuchdir. Bugun xalq farovonligi, mamlakat taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlarning kuch-g'ayrati, azm-u shijoati, aqliy zakovatiga tayanilmoqda.***

# EZGU MAQSADLARIMIZDA QACHON SAMARA, NATIJA BO'LADI, QACHONKI...

Albatta, yoshlarning ko'p bo'lgani yaxshi. Biroq ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ayniqsa, ish bilan ta'minlash masalasi borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, bandlikni ta'minlash masalasi barcha zamonlarda ham hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki xalqning yaxshi yashashi odamlarning bandlik darajasi yoki ishsizlik muammosining qanday hal qilinishi bilan belgilanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda bugungi kunda ishsiz yoshlar soni 800 mingdan oshiq va bu raqam bandligi ta'minlanmagan yoshlarning 17 foizini tashkil qiladi. Raqam kichkina ko'rinishi mumkin. Lekin uning ortidan paydo bo'layotgan va bo'lishi kutilayotgan muammolar xavfi juda ham katta. Shu bois, so'nggi yillarda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari Toshkentda yoki qaysi hududda bo'lmasin, avvalo bandlik masalasiga, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yoshlarni ish bilan ta'minlashga eng ustuvor vazifa sifatida qaramoqda.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ushbu masala tanqidiy tahlil qilindi.

Ma'lumki, 2021-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nomlanishi munosabati bilan davlat dasturi qabul qilindi. Shu yilning 27-yanvar va 10-fevral kunlari ushbu dastur doirasida amalga oshiriladigan ishlar belgilanib, mas'ullarga vazifalar yuklatilgan edi. Navbatdagi videoselektor yig'ilishida ushbu vazifalar ijrosi ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda ayrim hududlarda yoshlar masalalariga e'tibor hali ham talab darajasida emasligi misollar asosida ko'rsatib o'tildi. O'zibo'larchilik holatlari qattiq tanqid qilinib, yoshlar bilan ishlashni lozim darajada tashkil etmagan rahbarlar lavozimidan ozod etildi, ayrimlari qat'iy ogohlantirilib, vaziyatni o'nglashi uchun muhlat berildi.

– Eng muhim vazifa, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berish. Bu boradagi eng katta imkoniyat va zaxiramiz bu – tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta biznesdir, – dedi davlatimiz rahbari.

Videoselektor yig'ilishi mutasaddilarga yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasi qo'yildi. Xalqqa ham, tashkilotlarga ham ma'qul bo'ladigan bir qancha imtiyozlar belgilanadi.

Yoshlar mamlakatimizning asosiy tayanchi va ular bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarda hal qiluvchi kuchga aylanmog'i lozim. Bu yo'lda nafaqat yoshlarning o'zi, shu yurt, shu vatan, shu xalq taqdiriga daxldor bo'lgan har bir inson hamjihatlikda, bamaslahat harakat qilmog'i zarur. Shundagina ezgu maqsadlar yo'lidagi harakatlarimizda samara, natija bo'ladi. Davlat rahbari bugun barchamizdan aynan shuni kutmoqda.

**Abdumalik AKRAMOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi.**
**O'zA**

# KORONAVIRUS: KUNLIK O'SISH KUZATILMOQDA



***So'nggi vaqtlarda yurtimizdagi test natijalariga ko'ra koronavirus bilan kasallanayotganlarning kunlik ko'rsatkichi rasman 300 nafardan kamaymayapti. Bu raqam yanvar oyidagidan 7-8 barobar ko'p demakdir. Kasallikni alomatlarsiz o'tkazayotganlar soni bundan bir necha karra yuqori bo'lishi mumkin. Sog'liqni saqlash vazirligi axborotiga ko'ra, haqiqatda vaziyat xavotirli.***

Joriy yil 18-apreldan karantin qoidalari yanada kuchaytirildi. Jamoat joylarida niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, qo'llarni antiseptik vosita bilan zararsizlantirish, qoidabuzarlarga nisbatan qat'iy javobgarlik choralarini ko'rish, jarimalar qo'llash belgilab qo'yildi.

Jamoat transportlarida o'rindiqlar soni 50 foizga cheklanib, yo'lovchilar tashilishini ta'minlash uchun yo'nalishli transport vositalari sonini oshirish hamda oxirgi bekatda dezinfektsiya ishlarini amalga oshirish belgilandi.

Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari Sanitariya epidemiologiya xizmati bilan birgalikda koronavirus aniqlangan ta'lim muassasalarida o'qish ikki hafta onlayn rejimda amalga oshiriladi.

— Koronavirus pandemiyasini yengishda yana bir muhim omil vaksina hisoblanadi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Doniyor G'aniyev. — Aholining katta qismini, ayniqsa, xavfli kategoriyaga kiruvchilarni vaksina bilan emlash ishlarini tezroq tugatishimiz kerak.

SSV bergan ma'lumotga ko'ra, 17-aprelga qadar jami 400 mingdan oshiq aholi vaksinaning birinchi dozasi bilan emlangan. Oxirgi bir sutkada emlanganlar soni 33 mingtani tashkil etgan.

Respublika bo'yicha emlash ishlari uchun jami 3 ming 138 ta emlash punkti, 862 ta harakatdagi mobil brigada faoliyati yo'lga qo'yilib, bitta punkt bir kunda o'rtacha 70 nafar fuqaroni emlash (kuniga jami 200 mingdan ortiq fuqaro degani) imkoniga ega ekani aytilgan edi. Lekin amalda emlanganlar soni bir kunda bitta emlash punktiga 70 nafar emas, atigi 10 nafarni tashkil etmoqda. Yurtimizda birinchi navbatda emlanishi belgilangan fuqarolar soni esa 4,1 million nafardan iborat.

**Muxbirimiz**

# PREZIDENT SAYLOVI: TAYYORGARLIK BOSHLANDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Davlatimiz rahbari tomonidan shu yil 8-fevralda imzolangan tegishli qonun bilan saylov qonunchiligining takomillashtirilishi fuqarolarning saylov huquqi kafolatlari, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada keng ta'minlashda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlarga binoan endilikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari saylovi ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktyabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

Prezident saylovi Yangi O'zbekistonda saylovchilarning siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgan bir sharoitda o'tkaziladi. Buning uchun saylovga tayyorgarlik ko'rishning dastlabki bosqichi, ya'ni saylov kampaniyasi e'lon qilingunga qadar, zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish barcha saylov tashkilotchilarining muhim vazifasidir.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturi batafsil muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Dasturdan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ilk bor Saylov kodeksi asosida o'tajak Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish borasida izchil amalga oshiriladigan ishlar o'zining batafsil ifodasini topgan. Bajariladigan vazifalarning ijro muddati va mas'ul ijrochilari aniq ko'rsatilgan.

Avvalo, saylovga tayyorgarlik ko'rish jarayonini huquqiy hamda uslubiy jihatdan ta'minlash, saylov jarayoni ishtirokchilarining saylov qonunchiligiga oid bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash borasidagi ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda barcha okrug hamda uchastka saylov komissiyalarining a'zolari uchun seminarlar, treninglar, o'quv mashg'ulotlari, konferensiyalar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlar, jumladan, onlayn muloqotlar o'tkaziladi.

Asosiy tadbirlar dasturida saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, ushbu jarayonda axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish, saylovga tayyorgarlik jarayonini koronavirus pandemiyasi sharoitini hisobga olgan holda o'tkazish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Markaziy saylov komissiyasining majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalarining faoliyati tartibini belgilab beruvchi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodni qo'llab-quvvatlovchi imzolarni to'plash va imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibiga doir nizomlar qabul qilindi.

Yig'ilishda bu yilgi Prezident saylovi mamlakatimizda boshlangan keng qamrovli islohotlarning, xalqimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarning bardavom bo'lishini ta'minlash borasida barcha saylov tashkilotchilari uchun muhim sinov bo'lishi ta'kidlandi.

Majlisda Markaziy saylov komissiyasining vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi.

**Jamshid MUSURMONOV**

# YOSH TADBIRKORLAR MUAMMOLARGA DUCH KELMOQDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Ta'kidlash kerak, Umrzoq Safarov oilaviy tadbirkorlik — novvoylik bilan shug'ullanadi. Faoliyatini kengaytirish, qolipli non ishlab chiqarish sexini ochish, unga zarur uskunalarni olib kelish, yangi ish o'rinlari yaratish uchun 2020-yil mart oyidan buyon kredit olishga harakat qiladi. Hatto joriy yil 22-23-yanvar kunlari respublika ishchi guruhi tomonidan o'tkazilgan ochiq muloqotda ham o'z muammosini o'rtaga tashlagan. Ammo hozirgacha biror natija yo'q.

— O'tgan yili 5-mart kunida "Har bir oila — tadbirkor" davlat dasturi doirasida imtiyozli kredit olish uchun "Xalq banki"ning tuman bo'limiga hujjat topshirgan edim, — deydi Umrzoq Safarov. — Arizada 33 million so'm kredit olib, qolipli non ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi ekanimni ko'rsatgandim. Bank xodimlari 2020-yil 15-mart kunigacha kredit chiqarib berishini aytgan edi. Lekin hamon kredit ololganim yo'q.

Umrzoq non va non mahsulotlari sexini ochish uchun joyni ham hozirlab qo'ygan. Kredit ajratilsa, jihozlarni olib kelib o'rnatsa bo'ldi, mahallada yagona bo'lib turgan ushbu novvoyxona faoliyati yanada kengayadi. Bu masalada "Xalq banki" Do'stlik tuman bo'limidan kredit nega chiqmayotani bilan qiziqdik.

— Qonun hujjatiga ko'ra ta'minotchi tomonidan mahsulot yetkazib berilgach, kredit chiqarib berilishi kerak, — deydi "Xalq banki"ning Do'stlik tuman bo'limi boshqaruvchisi Mashrab Tursunov. — Umrzoq Safarovga kafolat xatlari berilgan, ta'minotchi tomonidan mahsulot yetkazib berilmagan, lekin bank tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan ishlarning hammasi — zarur hujjatlar tayyor turibdi. Ta'minotchi soliqda qarzi borligi uchun bunga mahsulot yetkazib bera olmaganini bildirdi. Hozir boshqa ta'minotchi izlanyapti. U tomoni hal bo'lsa, ta'minotchi mahsulotni yetkazib berishi bilan kreditni chiqarib beramiz.

Kredit chiqishi nega kechikayotgani Umrzoqning o'ziga ham tushuntirildi. Bank tarafidan qilinishi lozim bo'lgan barcha jarayon amalga oshirib bo'lingani ta'kidlandi. Bu masalada yana bir mas'ul 3-sektor mutasaddilaridan ham izoh olishga harakat qildik.

— Fuqaro Umrzoq Safarov kredit olish uchun murojaat qilgan. Barcha hujjatlar sektor tomonidan rasmiylashtirilib, bankka taqdim qilingan, — deydi Do'stlik tumani 3-sektor kotibi Nurbek Avazov. — Ayni paytda uning ta'minotchi bilan bog'liq masalasi hal etilib, boshqa yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuziladigan bo'ldi, bu ish tez orada ijobiy hal etiladi.

Mas'ullar fuqaro murojaati nazoratda turganini, amaldagi tartib bo'yicha mijoz jihoz ta'minotchisi bilan shartnoma tuzib, bank kafolat xati asosida jihozlar olib kelib o'rnatilgandan so'ng kredit o'sha zahoti ajratilishini ta'kidlamoqda. Demak, muammoga yechim shuki, Umrzoq Safarov yangi ta'minotchi topib, u bilan shartnoma tuzishi kerak.

## Kredit olish bo'yicha tushuncha yetarli emas (mi?)

*Yoshlar muammolarini o'rganish, ularni tegishli tartibda hal etish, bandligini ta'minlash borasida Namangan viloyatida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha shahar va tumanlar kesimida tashkil etilayotgan "Hokim va yoshlar" uchrashuvlari, sayyor qabullar davomida ularning murojaatlari o'rganilib, muammolarga yechim topilmoqda.*



Jumladan, joriy yilning 1-, 5-fevral kunlari Namangan viloyatidagi yoshlar bilan o'tkazilgan muloqotlar davomida ularning taklif va muammolari ro'yxatga olingan edi. Biroq "Yoshlar daftari"ga kiritilgan kosonsoylik Otabek Jumaboyevning murojaati hamon yechimini topmagani ma'lum bo'ldi. U tuman hokimligida o'tkazilgan muloqot chog'ida issiqxona qurish uchun kredit ajratishni so'ragan. Buning uchun "Xalq banki"ning tuman bo'limiga fevral oyida hujjatlarini topshirgan. Lekin ta'minotchi masalasidagi muammolar sabab murojaati hal bo'lmagan. 18-mart kuni hujjatlarni qayta tayyorlagan.

— Dastlab hujjatlarni tayyorlab, ta'minotchi bilan shartnoma tuzib olib kelsam, viloyatdan tasdiqlanmadi, — deydi Otabek Jumaboyev. — Shartnomani Namangan shahridan olib kelganim uchun "viloyat bazasida yo'q" degan va'j bilan hujjatim qabul qilinmadi. Boshqa ta'minotchi topib, shartnoma olib kelishimni aytishdi. Keyin qaytadan shartnoma tuzib, 18-mart kuni topshirdim.

Masalaga oydinlik kiritish maqsadida bank mutasaddilari bilan ko'rishdik.

— Biz kafolat xatini beramiz, shu asosda ta'minotchi issiqxonani qurib beradi, — deydi "Xalq banki"ning Kosonsoy tuman bo'limi boshlig'i o'rinbosari Mo'minjon Vohidov. — Shundan so'ng har ikki tomon bajarilgan ishdan rozi ekanini aniqlab, pulni ta'minotchiga o'tkazib beramiz.

Otabek 2-sektor hududidagi "Rovot" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiladi. Imtiyozli kredit naqd pul ko'rinishida berilmasligi tushuntirilgan.

— Yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda fuqaro Otabek Jumaboyev issiqxona tashkil etish maqsadida murojaat qilgan, — deydi Kosonsoy tumani 2-sektor kotibi Karimjon Hayitov. — Uning murojaati "Xalq banki"ning Kosonsoy tuman bo'limi xodimlari tomonidan o'rganilganda uyida bor issiqxonani ko'rsatib, shu issiqxona uchun mablag' chiqarib berishni so'ragan. Shu joyning o'zida unga bu ish noqonuniy ekani tushuntirilib, rad javobi berilgan. Bundan tashqari, fuqaro "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turishini hisobga olib, sektor tomonidan unga uyi yaqinidagi fermer xo'jaligidan 15 sotix yer maydoni ajratib berilib bandligi ta'minlangan.

O'rganishlar davomida ko'pchilik yoshlarda kredit olish to'g'risida tushuncha yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Murojaatchi imtiyozli kredit belgilangan tartibda uch tomonlama, ya'ni ta'minotchi, murojaatchi va bank tomonidan tuzilgan shartnoma asosida issiqxona qurilgandan so'ng ta'minotchi hisobiga o'tkazib berilishini tushunmagan. Bank xodimlari bu borada mijozlarga to'laqonli, to'g'ri tushuncha bermagani bois, turli tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda.

## Tikuv mashinalari yetkazib berildi

*Namangan viloyatida o'tkazilgan muloqotlar davomida ro'yxatga olingan murojaatlarning ayrimlari hanuzgacha o'z yechimini topmagan.*

Masalan, Uychi tumani "Bog' ko'cha" mahallasida yashovchi, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan Odina Jafarova qandolatchilik yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish maqsadida imtiyozli kredit olish istagini bildirgandi. Oradan ikki oy o'tsa-da, "Xalq banki" Uychi tuman bo'limi tomonidan haligacha kredit ajratilmagan. Xo'sh, buning sababi nimada?

— Fuqaro Odina Jafarova murojaat qilib "Har bir oila — tadbirkor" davlat dasturi doirasida naqd pul olsa bo'ladimi?", deb so'ragan, — deydi "Xalq banki" Uychi tuman bo'limining kredit bo'limi boshlig'i Rahmatillo Toshboyev. — Chok tikish mashinasi olib, tikuvchilik bilan shug'ullanish niyatida ekanini bilgach, pul emas, mahsulotni shu bugunoq yetkazib beraman, deb aytganman.

— Bank xodimiga naqd pul kerak ekanini tushuntirganman, lekin chok mashina qilib beraman, deb aytdi, men rozi bo'ldim, — deydi Odina Jafarova. — Lekin oradan ikki oy o'tib ketdi. Tadbirkorman, qo'l ostimda ishchilar bor, ularni tashlab har kuni bankka kela olmayman, shuning uchun ishimni tezroq hal qilib bering, deganman.

Yil boshidan beri tumanda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolardan 165 nafari kredit olish istagini bildirgan va bugunga qadar 150 ta murojaat qanoatlantirilgan. Odinaga ham imtiyozli kredit olish tartibi tushuntirilgandan so'ng, joriy yil 6-aprel kuni tikuv dastgohlari olish uchun bankka yangi shartnoma taqdim etdi. Tomonlar kelishgan holda umumiy qiymati 27 million so'mlik 4 ta tikuv dastgohini yosh tadbirkorga yetkazib berdi.

— Bizga hozirgi kunda "Yoshlar daftari"ga kirgan 31 nafar fuqarodan murojaat kelib tushgan, — deydi Uychi tuman DSI boshlig'ining o'rinbosari Tohirjon Hojiyev. — Shundan 22 tasi ijobiy hal etilgan. Shu jumladan, Odina Jafarovaning murojaatini ko'rib chiqish jarayonida ayrim tushunmovchiliklar bartaraf etilib, tikuv mashinasi yetkazib berildi.

Ishining ijobiy hal etilganidan quvongan Odina Jafarova kelgusida faoliyatini kengaytirib, yangi ish o'rinlari yaratish niyatida.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, murojaatchi imtiyozli kredit naqd pul shaklida berilmasligini, tikuv dastgohlari yoki qoramollar ta'minotchi tomonidan yetkazib berilgandan so'ng mablag'lar ta'minotchi hisobiga o'tkazib berilishini tushunmagan. Bank xodimlari esa buni sodda qilib tushuntira olmagani sababli muammoning yechimi cho'zilib ketgan.

**Javohirbek SHAMSUTDINOV,
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi boshlig'i**

ILM-FAN YUTUQLARI — AMALIYOTGA

# "MAMMO CANCER AI"

## – sun'iy aql yordamida ko'krak bezi saratonini aniqlaydi



***Ko'krak bezi saratoni dunyoda ayollar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. 2018-yilda 2 milliondan ziyod ayolga shunday tashxis qo'yilgan va 627 ming ayol shu kasallikdan vafot etgan. Statistikaga ko'ra, hozirgi kunda 8 ayoldan biri ko'krak saratoni bilan kasallangan.***

Tibbiy tekshiruvdan so'ng aniq tashxis qo'yish, saratonni erta aniqlash va o'limlar sonini kamaytirishga erishish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining a'zosi Muslimbek Pirnazarov va uning jamoasi "Mammo Cancer AI" loyihasini ishlab chiqdi.

— "Mammo Cancer AI" – sun'iy intellektdan foydalangan holda ko'krak bezi saratoniga aniq diagnoz qo'yish loyihasi bo'lib, kompyuterda tasvirni tahlil qilish texnologiyasiga asoslangan va ko'krak bezi saratonining shifokor aniqlay olmaydigan belgilarini aniqlashga qodir, — deydi Muslimbek Pirnazarov. — Diagnostika shifokori bu dasturni yordamchi sifatida ishlatadi hamda tez, aniq va samarali tashxis qo'yadi. Ko'krak bezi saratonining eng keng tarqalgan turi ko'krak massasi bo'lib, u turli shakl va o'lchamda uchraydi. Shifokorning ko'rish qobiliyati yomonligi, charchoq yoki xato omillari kuzatilganda bizning mahsulotimiz shifokor va bemorga bexato ishlashda qo'l keladi. Natijada saratonni erta aniqlash va o'limni kamaytirishga erishiladi.

Loyiha – sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalangan holda, rentgen tasvirlarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan.

**Iqbol PARDAYEVA**

# BESH TASHABBUS – BESH IMKON

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni sport musobaqalariga, kitobxonlik hamda axborot texnologiyalariga jalb qilish muhim vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi tomonidan 12-17-aprel kunlari "Vatan ravnaqi yo'lida birlashaylik" shiori ostida yoshlar haftaligi o'tkazildi. Unda viloyatning barcha tuman va shaharlaridan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 100 dan ortiq tadbirlarga qamrab olindi.

— Hokim va sektor rahbarlarining kubogi uchun o'tkazilgan sport musobaqalarida yoshlar katta qiziqish bilan ishtirok etdi, — deydi Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi boshlig'i Miraziz Mirsultonov. — Ularni bu musobaqa yanada yaqinlashtirdi, do'stlik rishtasini mustahkamladi. Shu jihatdan musobaqalar ham jismonan, ham ma'naviy tarbiya bo'ldi. Bundan tashqari, yoshlarning madaniy hordiq chiqarishi uchun Chirchiq shahridagi "Mashinasozlar" istirohat bog'ida "Manzur" xalq teatri ishtirokida shou konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Haftalik davomida xotin-qizlar bandligini ta'minlash hamda ularning muammolarini o'rganishga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, qizlarning hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi va jamiyatda faol ayollar safidan o'rin olishiga zamin yaratish maqsadida Bo'stonliq tumanida "Qizlar ovozi" forumi tashkil etildi.

— Tuman qizlari bilan suhbatlashganda ularning kayfiyatiga, fikrini erkin ifoda qilishiga alohida ahamiyat beraman, — deydi "Qizlar ovozi" platformasining faoli Shahnoza Husannazarova. — Tumanimizda 100 dan ziyod qizlarni bir loyiha doirasida birlashtirib, hayotdagi maqsadlari sari olg'a intilishiga motivatsiya berib boryapmiz. Muammolarini o'rganib, yechimi yuzasidan tegishli mutasaddilarga takliflarimizni aytyapmiz. Ular bizni doim qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Forum kunlari yana bir yosh tadbirkor o'z ish faoliyatini boshladi. Gap shundaki, Chirchiq shahrida "Yoshlar: 1+1" loyihasi doirasida ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish kurslari tashkil etish orqali ularga yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, "Har bir tadbirkor — yoshlarga madadkor" tamoyili asosida 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish tashabbusi ijrosi yuzasidan o'quv kursini tamomlagan Zulfiya Anorova "Women's club" xotin-qizlar sog'lomlashtirish markazini tashkil etdi. Yosh tadbirkor 4 nafar ishsiz yoshning bandligini ta'minladi.

Haftalikda "Yashil kelajak" shiori ostida turli manzarali hamda mevali daraxt ko'chatlari ekilib, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Viloyatning Quyichirchiq va Toshkent tumanida o'tkazilgan tadbirlarda 120 nafardan ziyod ko'ngilli yoshlar ishtirok etdi. Loyihaning uzviy davomi sifatida "Mahallam obodligiga mening hissam", degan ezgu tashabbus atrofida birlashgan mahalla yoshlari hududlarda obodonlashtirish ishlarini olib bormoqda.

Viloyat yoshlari ishtirokidagi tadbirlar Besh tashabbus — Besh imkon shiori ostida davom etadi.

**Shoira OXUNJONOVA,**
**Yoshlar ishlari agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi matbuot kotibi**

# IMOM BUXORIY TA'LIMOTINI O'RGANGAN YOSHLAR YOMON YO'LGA KIRMAYDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Alloh taolo O'zining kalomida shunday marhamat qiladi:

"Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur" (Mujodala surasi, 11-oyat).

Alloh taolo ilm, zuhd va taqvoda zamonasining peshqadami bo'lgan Imom Buxoriyni bu dunyoda nomlarini ulug' qildi. Imom Buxoriy to'plagan hadislar insonga to'g'ri yo'l tanlash, ota-onani hurmat qilish, halol, oqibatli, bag'rikeng bo'lish, Allohning buyruqlariga bo'ysunish kabi xislatlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Ana shularni hisobga olib yurtboshimizning tashabbusi bilan mamlakatimizda Imom Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Hadis ilmi maktabi, Xalqaro Imom Buxoriy ilmiy-tadqiqot markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi yaratildi. Mana endi, bir tomondan Imom Buxoriyning xizmatlari va o'zlariga mos yodgorlik majmuasi, ikkinchi tomondan ziyoratchilar uchun barcha sharoitlarga ega bo'lgan maskan yaratilmoqda.

Prezidentimiz Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida bo'ldi. Davlatimiz rahbari Islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' bobokalonimizning olamshumul dovruqlariga mos va arzigulik qadamjoning yangi loyihasi bilan tanishdi. Tadbirda hozir bo'lgan oqsoqollar, ulamolar, tuman va shahar deputatlari, jamoatchilik vakillarining fikrlarini eshitdi va yangi majmua qurilishi boshlanganini e'lon qildi.

Yangi yodgorlik majmuasida soni tobora oshib borayotgan milliy va xorijiy ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Majmua tarkibiga kiruvchi masjidning ichki sahnining o'zi ikki ming kvadrat metrdan oshadi. Atrofidagi sahnlar bilan masjidda bir necha o'n ming musulmon bir vaqtning o'zida namoz o'qishi mumkin bo'ladi. Hazrat Imom Buxoriy qabrlarini ziyorat qilish sharoitlari ham yaxshilanadi.

Ushbu buyuk inson xotirasiga xalqimizning va jahon hamjamiyatining ehtiromi belgisi sifatida Allohning izni va xalqimizning xohish-irodasi bilan amalga oshiriladigan majmuaga muborak Ramazon oyi kunlarida tamal toshining qo'yilishi Yaratgan Parvardigorning ushbu ezgu ishlarni qo'llab-quvvatlashiga umid bog'lashga imkon beradi.

Tadbir avvalida Shavkat Mirziyoyev mo'min-musulmonlar, butun O'zbekiston xalqini muborak Ramazon oyi bilan muborakbod etar ekan: "Ramazon oyi – ezgu niyatlar ijobat bo'ladigan muqaddas oy. Bu qurilishni shu oyda boshlayotganimiz ham xayrli, xosiyatli bo'ladi, qalbimizga taskin beradi. Bu sohada qilayotgan ishlarimizdan maqsad – islomga e'tiqodimizni, alloma bobolarimizga hurmatimizni ilm bilan bildirish. Ajdodlarimizga munosib bo'lish biz uchun juda katta burch", – dedi.

2020-yilda pandemiya tufayli Ramazon oyida diniy amallarni uyda bajarishga to'g'ri kelgani yodga olindi. Bu yil esa masjidlar ochiq, mo'min-musulmonlar karantin qoidalariga qat'iy amal qilib, ibodatlarini ado etayotgani qayd etildi.

"To'rt yillik izlanish, yangilanish va sinovlardan o'tib, katta tajriba orttirdik. Xalqimizni hayotdan rozi qilishga qaratilgan ishlarimiz bundan keyin ham izchil davom ettiriladi. Ramazon oyining olijanob g'oyalari, muqaddas amallari ham ana shunday ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishda mustahkam zamin bo'ladi", – dedi yurtboshimiz.

Markaziy Osiyo davlatlari – O'zbekiston, Tojikiston hamda Afg'oniston o'rtasida diniy-ma'rifiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash maqsadida 2021-yil 15-martda Samarqand shahrida Imom Buxoriy merosining o'ziga xos xususiyatlari mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etilgan edi.

Ushbu xalqaro anjumanda so'zga chiqqan Afg'oniston Islom Respublikasi irshod, haj va vaqf ishlari vaziri Muhammad Qosim Halimiy: "O'zbekiston shunday diyorki, yer yuzidagi har bir musulmon bu tabarruk yurtning ziyoratiga oshiqadi. Imom Buxoriy rahmatullohi alayhning maqbarasini ziyorat qildik. Bu tabarruk joyda juda katta obodonlashtirish ishlari olib borilayotgani, qadamjolar yanada obod etilayotgani bizni g'oyat xushnud etdi. Bularning barchasi Prezident janob Shavkat Mirziyoyevning mamlakatni yanada obod, xalqni yanada farovon qilish, yuksak bilim va salohiyatli, vatanparvar, milliy qadriyat hamda an'analarga, ajdodlarning bebaho merosiga sadoqatli avlodni kamolga yetkazishdek ezgu orzu-umidlari ro'yobiga xizmat qilayotir. O'zbekiston yana ilm-fan markaziga aylanmoqda", degan edi.

Shavkat Mirziyoyev majmuada amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Bu yerda katta masjid, to'rtta simmetrik minora, baland ayvonlar, yo'ldan kirib kelishda xiyobon bo'ladi. Ko'p sonli ziyoratchilarga zamonaviy qulayliklar yaratish uchun 7 ta mehmonxona, 3 ta avtoturargoh va avtobekat, supermarket, bozorcha barpo etiladi. Shuningdek, oshxonalar, hunarmandchilik buyumlari rastasi, hammom, tahoratxona, qushxona qurilishi belgilangan.

**Zayniddin ESHONQULOV,**
**Samarqand viloyati bosh imom-xatibi.**
**O'zA**

# Трудоустроить, обучить, поддержать







***Обеспечение занятости, развитие молодежного предпринимательства, организация содержательного досуга подрастающего поколения – важные темы, которые обсуждались на состоявшемся недавно видеоселекторном совещании под председательством Президента. Озвучен целый ряд мер, направленных на всестороннюю поддержку юношей и девушек.***

## БОРЬБА С БЕЗРАБОТИЦЕЙ: НИЗКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ, ЛИЧНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

Как отмечалось на совещании, **в «молодежную» тетрадь включены 648 тысяч безработных, из которых 283 тысячи трудоустроены в первом квартале.** В частности, 175 тысячам юношей и девушек выделено 45 тысяч гектаров земли.

Вместе с тем в некоторых регионах этим вопросам не уделяется достаточно внимания. Например, в Андижанской области в первом квартале обеспечена занятость лишь пяти тысяч молодых людей, хотя промышленные предприятия и кластеры имеют семь тысяч вакантных постоянных рабочих мест.

Также есть недостатки в обучении безработных профессиям и предпринимательству. В частности, **по программе «1+1» было запланировано повышение квалификации 100 тысяч молодых людей** с дальнейшим предоставлением им льготных кредитов, однако территориальные структуры Торгово-промышленной палаты демонстрируют «неспособность системно организовать эту работу».

На совещании приведены конкретные цифры, наглядно иллюстрирующие проблему. За три месяца обучение предпринимательству прошла только 21 тысяча юношей и девушек по всей стране. При этом в Ташкенте лишь 1000 человек получили сертификаты о завершении курсов, в Наманганской области – 1100. В Бухарской области профессиям и предпринимательству обучены всего 216.

**Самый низкий показатель обеспечения занятости в Сурхандарьинской области – 30 процентов.** Проектом «1+1» охвачены 16 человек в Ходжейлийском, 27 – в Фуркатском, 78 – в Улугнорском, 82 – в Ангорском районах.

Подобная неудовлетворительная работа подвергнута резкой критике. Освобождены от должностей заместитель хокима Сурхандарьинской области по вопросам молодежной политики, хокимы Фуркатского и Улугнорского районов, руководители некоторых секторов в Шафирканском, Камашинском, Хивинском, Чустском, Ходжейлийском и Ангорском районах. Ряду других ответственных лиц объявлено строгое предупреждение и отведено время на исправление ситуации.

## МОЛОДЕЖНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО: ЛЬГОТЫ И СУБСИДИИ

«Самая главная задача – прежде всего обеспечить занятость молодежи, создать ей условия для получения достойного дохода. Предпринимательство, особенно малый и средний бизнес, – наша самая большая возможность и ресурс в данном направлении», – сказал Шавкат Мирзиёев.

В связи с этим анонсирован ряд льгот как для безработных и начинающих предпринимателей, так и для организаций-работодателей.

В частности, **с 1 мая предприятиям, которые приняли на работу представителей подрастающего поколения, будет возвращаться социальный налог, уплаченный за этих сотрудников.** Кроме того, **с 1 июня студенты, включенные в «молодежную» тетрадь, смогут рассчитывать на субсидии в размере до 500 тысяч сумов при прохождении практики на предприятиях и в компаниях.**

Выпускников центров профобучения при первом трудоустройстве освободят от уплаты подоходного налога на срок до шести месяцев.

Предприниматели, принявшие **на работу более пяти лиц из «молодежной» тетради, с 1 мая станут получать скидку до 50 процентов при аренде государственного имущества.** Также молодым людям, арендующим здание и открывающим собственное дело, возместят до 30 процентов годовой суммы платежей за аренду.

Включенные в «молодежную» тетрадь, а также воспитанники домов «Мехрибонлик» смогут пройти обучение вождению и месячную военную службу за счет бюджета. Предусмотрена частичная компенсация расходов на изучение иностранных языков и общеобразовательных предметов в частных учебных учреждениях.

**С 1 июля на переподготовку молодых сотрудников, которые начинают новую работу в частных компаниях, будет выделяться субсидия на расходы до миллиона сумов.**

Еще одна важная сфера, способствующая занятости, – сельское хозяйство. Сегодня от 2 до 4,5 тысячи юношей и девушек в 21 районе страны получили земельные наделы. **Участники «молодежной» тетради смогут оформить субсидии в размере до 2 миллионов сумов на приобретение семян и саженцев.** Для обеспечения прозрачности финансирования поручено создать специальную электронную платформу.

## ПОЛЕЗНЫЙ ДОСУГ: ПОМОЩЬ ВУЗОВ, ПОДДЕРЖКА ГОСУДАРСТВА

На совещании обсуждены вопросы содержательной организации досуга молодежи. Отмечено, что в этих целях дополнительно организовано 36 тысяч кружков, которые посещают 874 тысячи мальчиков и девочек. В рамках «пяти инициатив» в образовательные учреждения, библиотеки и учебные центры передано 97 тысяч предметов для занятия искусством и спортивного инвентаря, компьютеры и 562 тысячи книг.

Проанализирована и деятельность детских центров «Баркамол авлод», которые сегодня охватывают лишь 175 тысяч юных узбекистанцев. Поставлена задача в полной мере использовать потенциал этих учреждений, создать их филиалы в каждой школе.

Особое внимание – высшим учебным заведениям. Глава государства подчеркнул: **каждый вуз должен быть центром духовности и культуры для ближайших махаллей.** Институты и университеты займутся вовлечением неорганизованной молодежи в кружки по изучению иностранных языков, повышению компьютерной грамотности, спортивные, культурные. Будут организованы бесплатные подготовительные курсы для включенных в «молодежную» тетрадь.

Отдельно рассмотрен вопрос жилищных условий студентов. Сегодня более 130 тысяч юношей и девушек проживают в арендуемых квартирах. Правительство готовит специальную программу по этому вопросу. Согласно ей **с 1 мая предусматривается компенсирование студентам половины арендной платы.** На начальном этапе новая система охватит 60 тысяч молодых людей. При этом малообеспеченным студентам расходы возместят из средств хокимиятов и вузов.

По обсужденным на совещании вопросам заслушаны отчеты ответственных лиц.



**Подготовила Ольга ЛИДИНА**

# Новости

## Добро пожаловать на работу!

***По инициативе прокуратуры Наманганской области Главным управлением по труду и занятости проведена ярмарка вакансий в моноцентре «Ишга мархамат» в Намангане.***



Около 250 предприятий, организаций и учреждений предложили свыше 7500 вакансий. На ярмарке 112 человек получили направления на работу. Кроме того, обратившимся гражданам объяснили: если есть желание освоить новые профессии, это можно сделать в учебных центрах.

Специалисты предоставили юридические консультации по трудовому законодательству, вопросам членства в кооперативах, получения теплиц на условиях субсидий, трудоустройства на оплачиваемые общественные работы, получения пособий по безработице.

## Швейные машинки в подарок

***В Учкудукском районе Навоийской области особое внимание уделяется профессиональному обучению и трудоустройству молодежи.***



Сформирована «молодежная» тетрадь, в которую вошли 612 юношей и девушек в возрасте до 30 лет. Из них 514 – безработные, 98 – нуждаются в социальной, правовой, психологической поддержке, желают обучаться профессиям.

Наряду с этим под постоянным вниманием находятся и вопросы обеспечения занятости женщин за счет повышения их активности и дальнейшего усиления социальной защиты. Включенным в «женскую» тетрадь переданы швейные машинки, что позволит организовать надомную работу.

## Займемся сельским хозяйством

***В Андижанском районе состоялся семинар, где шла речь о необходимости установления общественного контроля над выделением земельных наделов молодежи.***



В мероприятии приняли участие руководители секторов, депутаты, активисты махаллей, неорганизованная молодежь. Отмечалось, что по поручению главы государства безработным юношам и девушкам выделяются наделы для занятия сельским хозяйством. Участники высказали мнения и предложения по эффективной организации деятельности в данном направлении, установлению общественного контроля.

Проживающие в районе 26 молодых людей получили по десять соток земли на территории фермерского хозяйства «Курама».

## Здоровые пчелы и вкусный мед

***Запущен проект по поддержке женщин, желающих заняться пчеловодством.***



Экспериментальная программа «Климатически адаптированное пчеловодство для женщин, управляемое посредством искусственного интеллекта» нацелено на внедрение нового мобильного приложения. Оно обеспечит более полный контроль над состоянием пасек и здоровьем пчел. Также проект призван улучшить жизненные условия женщин и сохранить биоразнообразие.

Инициатива реализуется компанией Hive Tracks Международного центра сельскохозяйственных исследований в засушливых регионах при финансовой помощи МИД Германии в сотрудничестве с Ассоциацией пчеловодов Узбекистана.

# ХРАНЯЩИЕ ДЫХАНИЕ ВЕКОВ



*Издревле разрушение памятников архитектуры называлось «варварством». И если завоеватели ставили перед собой цель стереть с лица земли достижения покоренных народов, то современные «цивилизованные» люди с их стремлением к комфорту и благосостоянию в мирные дни уничтожают собственное культурное наследие.*

*«Зодчество было главной летописью человечества», – говорится в романе «Собор Парижской Богоматери» Виктора Гюго. В каком состоянии летопись Узбекистана дойдет до потомков? Кому доведется увидеть величественные здания, хранящие дыхание далеких веков?*

**НАСЛЕДИЕ**

*Ответы на актуальные вопросы мы ищем вместе с* ***Мавлюдой Юсуповой*** *– специалистом по сохранению объектов культурного наследия, исследователем теории и истории архитектуры и проблем реставрации памятников, доктором архитектуры, профессором, заведующей отделом архитектуры Института искусствознания Академии наук Узбекистана, членом-корреспондентом Международной академии архитектуры стран Востока.*

**– Мавлюда Аминжановна, для вас жизнь и архитектура – понятия тождественные. Как пришли к выбору профессии?**

– С детства любила читать и рисовать. Преимущественно на исторические темы. Увидев, что это больше чем увлечение, мама попросила совета у художника Дадахона Нури. Он организовал консультацию у выдающегося мастера кисти – заслуженного художника Узбекистана Чингиза Ахмарова, работавшего в близком мне стиле средневековой книжной миниатюры. Мудрый устоз посоветовал поступать на архитектурный факультет Ташкентского политехнического института: туда сразу зачислялись медалисты, сдавшие на «отлично» живопись и рисунок. Так и сделала, ощущая родство с выбранной профессией, потому что отец, братья, дяди были связаны со строительством.

Училась с удовольствием, все больше влюбляясь в предметы и предвкушая серьезную и очень важную работу. Мой дипломный проект посвящался изучению и реставрации мечети Кок-Гумбаз в Шахрисабзе, построенной Мирзо Улугбеком в XV веке. С 1979 года – в Институте реставрации, затем поступила в аспирантуру Института искусствознания Академии наук Узбекистана. Академики Галина Пугаченкова и Эдвард Ртвеладзе стали моими главными наставниками. Работала практикующим реставратором, защитила сначала кандидатскую, а затем и докторскую диссертацию об особенностях и развитии бухарской школы зодчества XV–XVII веков.



**– Архитектор-реставратор – специалист особого уровня ответственности: в его руках история, которую он может сберечь или исказить. Каким должен быть этот целитель памятников древнего зодчества?**

– Нужно как минимум пять лет учиться архитектуре, несколько – реставрации и всю жизнь совершенствоваться. Любить наследие предков и делать все для его бережного сохранения. Иметь высокий уровень профессионализма, представлять проектные предложения в соответствии с международными требованиями. Уметь отстаивать свои позиции. Порой в нашей сфере появляются советчики, желающие привнести в облик объекта какую-то свою эстетику. Главное – сохранить памятник в его первоначальном виде.

**– Как восстанавливается школа реставраторов Узбекистана?**

– К сожалению, очень медленно. На местах пытаются создать центры реставрации, но пока это большого успеха не имело. Хотели организовать Ассоциацию реставраторов. В телеграм-канале более ста специалистов, которые, не дожидаясь официального утверждения структуры, делятся информацией, задают вопросы. Уже хорошо. Чувствуется потребность в общении и обмене опытом. Давно этого не происходило, потому что не существовало объединения, которое проводило бы учебу, устраивало мастер-классы.



Мавзолей Саманидов (конец IX – начало X в.) в Бухаре – один из архитектурных шедевров Центральной Азии и жемчужина мирового зодчества. Отреставрирован в XX веке.

А ведь когда-то школа реставрации Узбекистана считалась одной из лучших. С 1979 по 1990-е годы в Ташкенте работал единственный в Центральной Азии Узбекский научно-исследовательский проектный институт реставрации памятников архитектуры (УзНИПИ реставрации), где трудились более 300 специалистов высокой квалификации. Закрытие института нанесло значительный урон данной сфере. В усиленном мониторинге методов сохранения наследия нуждаются Самарканд, Хива и Бухара, а Шахрисабз, к сожалению, уже оказался под угрозой исключения из Списка объектов Всемирного наследия ЮНЕСКО.

В Ташкентском архитектурно-строительном институте в прошлом учебном году открыто направление по подготовке архитекторов-реставраторов. Уже был второй набор.

В постановлении Президента «Об организации деятельности Министерства туризма и спорта» отмечается, что с 2021/2022 учебного года в ТАСИ и Самаркандском государственном архитектурно-строительном институте откроют факультеты охраны объектов культурного наследия, аналогичное направление появится в Бухарском колледже архитектуры и строительства. Подписан Указ «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы государственного управления в сферах туризма, спорта и культурного наследия». Агентство культурного наследия выступит заказчиком всех реставрационных работ с привлечением высококвалифицированных специалистов.

**– Удалось ли «вылечить» Шахрисабз, попавший в «тревожный список»?**

– «Вылечить» пока не удалось. Основные негативные процессы остановлены. Зарубежные эксперты готовят концепцию реабилитации города как объекта всемирного наследия. Далее, после обсуждения и утверждения ее окончательной версии, иностранные специалисты будут работать с узбекистанскими. Ведь лучше нас местную архитектуру никто не знает.

**– Как решаются проблемы дворца Таш-хаули в Хиве и городища Кампыртепа в Сурхандарьинской области?**

– Положительно. Специалисты дали экспертное заключение. Теперь там ведутся грамотные восстановительные работы.

**– Когда делается капитальный ремонт здания, всегда дают сравнительный фотоанализ: было и стало. Практикуется это по отношению к памятникам архитектуры?**

– К несчастью, хроники прошлого десятилетия большей частью из разряда «было плохо – стало еще хуже». К реставрации бесценного наследия, которое составляет гордость нашей страны и способно превратить Узбекистан в туристическую Мекку, привлекается дешевая рабочая сила. Если человек не понимает, зачем нужны полуразрушенные стены или почему нельзя на месте выпавшей плитки вставить «красивые» и модные современные образцы, его нельзя подпускать к памятнику древности. Отсюда и пластиковые окна в исторических постройках, где использованы уникальные технологии, передающиеся из поколения в поколение. Тогда мастера творили в расчете на долгую жизнь своего детища.



Такой пример. Зиёратгох Абдухалика Гиждувани в Гиждуване. «Энтузиасты» убрали хазиру (погребальный дворик) и дахму (сооружение в виде платформы с захоронением) святого. Благодарна нынешнему руководству страны за восстановление былого облика этого особо почитаемого места, где покоятся основатель ордена Ходжагон-Накшбандия и его мать. К счастью, несмотря на вылившиеся «в копеечку» неудачные работы по реконструкции в 2003 году, позже, в 2018-м, дахму и хазиру восстановили. При археологических раскопках даже был найден кусок древней облицовки и вставлен на самое видное место.

Положительные моменты есть. В настоящее время проводится «работа над ошибками», которая, я надеюсь, поможет избежать их впредь.

**– Чтобы не проводить раз за разом «работу над ошибками», важен грамотный кадровый резерв. Как готовят молодых специалистов и как проходит их практика?**

– Преподаю историю архитектуры Узбекистана и Центральной Азии, историю и методику реставрации памятников в двух вузах – уже четверть века в Национальном институте художеств и дизайна и в последние годы – в ТАСИ. Раньше в обоих институтах выделяли средства на практику и летом студенты могли поехать в исторические города, вживую увидеть то, о чем слышали на занятиях. Было время, когда сама возила группы и на месте, например в Бухаре, проводила лекции на примере конкретного памятника архитектуры. Это очень впечатляло учащуюся молодежь. Те, кто прочувствовал важность сохранения древних шедевров, будут их отстаивать – профессионально, патриотично.

В данное время практика из-за недостатка средств проходит в Ташкенте, хотя многие интересующие нас объекты расположены в Бухаре, Самарканде, Хиве, в Ферганской долине, Кашкадарье, Сурхандарье. Хорошо бы возобновить реставрационную практику в регионах. Надеюсь, что новое Министерство туризма и спорта, в ведение которого перешли памятники архитектуры, обратит внимание на эту проблему.

Обучаем будущих специалистов небольшими группами. В Институте художеств и дизайна есть предмет «Музееведение». Когда езжу по областям, встречаю в музеях наших выпускников, работающих по специальности. То есть лекции не прошли даром.

С открытием факультетов вижу положительную перспективу: квалифицированных специалистов станет больше, соответственно, объекты культурного наследия обретут новых «врачевателей» и защитников.



Мавзолей Ишратхона (XV в.) в Самарканде. Барабан купола и сам купол были утрачены в 1903 году.

**– Вы не раз лично участвовали в реставрационных работах. Что запомнилось особенно?**

– Конкретно как старший архитектор работала над проектами реставрации памятников с 1979 по 1986 годы. Потом как исследователь более высокого уровня в основном занималась консультативной деятельностью. Из того, что изучала лично, запомнилась древнейшая сырцовая мечеть в селении Кучкак (XI в.) в Кашкадарьинской области. Второй кашкадарьинский памятник – мавзолей в комплексе Султана-Мир-Хайдара (XI–XIII вв.). Еще мечеть Кемухтгарон в Бухаре, расположенный почти в пустыне комплекс Киз-биби – единственный сохранившийся женский суфийский монастырь в Центральной Азии. Он был почти полностью засыпан песком. Сейчас грамотно отреставрирован, туда проведена автомобильная дорога. Также принимала участие в разработке проектов реставрации таких выдающихся объектов Бухары, как медресе Кукельдаш, Абдуллахана...

Однако чаще всего вспоминаются отдаленные провинциальные сооружения. Представьте, открываем дверь в мечеть Кучкак, где полно скорпионов, ящериц. Снаружи жара, а здесь, за толстыми сырцовыми стенами, прохлада, вот живность и скопилась. Войти все равно надо, потому что необходимо сделать обмеры и техническую инспекцию. Вбегаешь не без страха, а выйдя, осматриваешься, нет ли на тебе незваного гостя... Султан-Мир-Хайдар запомнился истинной аутентичной обстановкой, духом святого места. Тогда памятник был почти нетронутым. Сейчас его перереставрировали, придали даже какой-то оттенок «евроремонта». Поэтому ратую за сохранение исторической самобытности зиёратгоха, призываю не делать их похожими друг на друга, не разрушать намоленную веками духовную энергетику.

**– Почему все-таки наблюдается подобное «осовременивание» объектов старины, если для проведения любых работ в охранной зоне требуется особое разрешение?**

– До недавнего времени существовал Департамент культурного наследия при Министерстве культуры и там был возобновлен экспертный совет из 11 членов – ученых и реставраторов-практиков. Совет рассматривает и обсуждает проекты реставрации памятников и новой застройки в исторической зоне, представляемые со всей республики. Надо сказать, что многие мы отвергаем, так как они выполнены на ненадлежащем уровне. Наше требование – научная обоснованность. В архитектуре есть правило: «Там, где начинаются сомнения, прекращается реставрация и остается консервация». Иногда законсервированные руины впечатляют больше, нежели воздвигнутый в натуральную величину макет памятника.

Сегодняшний подход вредит, лишает уникальности, очарования, возможности совершить своеобразное путешествие в историю. К примеру, застройка махаллей, столь привлекающих зарубежных туристов и исследователей своей аутентичностью, традициями, этнографией. Необходимы научные исследования, разработка архитектурных дизайн-кодов и проектных предложений в целях сохранения исторической структуры, облика, атмосферы старых махаллей. В Ташкенте они оказались настолько интересными, что выбраны зарубежными специалистами как тема, представляемая от Узбекистана на биеннале, которая пройдет в этом году в Венеции.



**– Приходилось ли вам отвечать на вопросы о состоянии архитектурных памятников зарубежным коллегам? Как туристы относятся к нашему культурному наследию?**

– Иностранные гости недоумевают, почему мы не особо его бережем. Удивляются, что реставрация проводится некачественно, что новые материалы (кирпич, ганч, архитектурная керамика и другой декор) менее эстетичны и уступают фрагментам, сохранившимся на данном памятнике. И они абсолютно правы.

В 2004 году стажировалась в качестве приглашенного профессора в Оксфорде, где читала лекцию в музее Ашмолеан. Умышленно не затрагивала вопросы реставрации. Рассказывала об особенностях знаменитой бухарской школы зодчества, ее шедеврах. Все-таки вопросы о качестве реставрации задавали. Что я могла сказать? Ответила, что у нас есть хорошие специалисты, которые стремятся улучшить положение дел. Никогда, выезжая за рубеж, не хочу говорить о недостатках в своей стране, потому что люблю ее и горжусь ею. И мы будем делать все возможное, чтобы сохранить уникальное наследие, так интересующее иностранцев.

**– Нашим читателям будет интересно узнать, как проходит процесс восстановления памятников архитектуры.**

– Источники финансирования бывают разными. Чаще всего выделяются средства из государственного бюджета, подключаются спонсоры, свой вклад может внести любой гражданин. Реставрацию памятника заказывают тому органу, который за нее отвечает. Раньше это было Главное управление охраны памятников при Министерстве культуры, которое, получив заказ, передавало его для разработки проекта Институту реставрации. У нас были отделы с мастерскими по регионам, лаборатория, определявшая состав кирпича, декора и растворов восстанавливаемого сооружения, фотолаборатория и многое другое. Я работала в самаркандской, кашкадарьинской мастерских, позднее в основном в бухарской. Отсюда у меня такая любовь к Бухаре, куда мы часто выезжали. Обмеряли памятники, вычерчивали кроки. Раньше не было компьютеров, все делалось вручную. Сейчас применяются лазерные измерители. Времени тратится значительно меньше, но мы знали здания лучше. Каждый сантиметр «прошел» через наши руки.

И тогда, и сейчас неизменными остаются основные правила: после того как проектная организация получает заказ на реставрацию памятника, на нем проводятся археологические исследования. Иногда встречаются артефакты, помогающие изучению истории. Обязательно работают конструкторы, чтобы определить состояние фундамента, стен. Составляется дефектный акт. Просматривается каждая стена, каждая комната, каждый купол, чтобы узнать, где и как нужно помочь зданию.

Проводятся гидрогеологические исследования. Сегодня во многих городах основания сооружений страдают от чрезмерной увлажненности: высоко поднялись агрессивные соленые грунтовые воды. Проникают через фундамент, через цоколь. Выветриваясь, оставляют белые пятна на стенах. Соль ускоряет разрушение. Первая задача – устройство дренажной системы вокруг памятника для снижения уровня грунтовых вод. Местами они отводятся в специальные коллекторы.

После всестороннего исследования за дело берутся ГАП (главный архитектор проекта) и ГИП (главный инженер проекта). На основе полной историко-архивной документации и предварительного изучения они приступают к работе над проектом реставрации памятника. Вот это и называется научной обоснованностью.

Раньше эскизный вариант анализировался комиссией, в которую входили светила науки и практики. В 80-е годы академик Галина Пугаченкова на обсуждении реставрации замечательного памятника эпохи Темуридов – мавзолея Ишратхона выступала против восстановления изразцов, барабана и купола: «Это испортит сооружение, оно потеряет первоначальный вид. Не рекомендую! Законсервировать». Таким образом еще на стадии эскизного проекта останавливали какие-то сумасбродные идеи. Только потом с учетом всех замечаний вырабатывался окончательный план реставрации. Если это шедевры, такие как Ишратхона, Биби-Ханым или бухарские памятники, рассматривали не один раз.

К сожалению, эти правила перестали соблюдаться. Мы, члены экспертного совета, рассматриваем проекты реставрации каждую неделю и часто выезжаем на места. Как правило, раз в месяц. В очередную поездку увидели варварские изменения дворца Ситораи-Мохи-Хоса и остановили их. Памятнику архитектуры нанесен явный ущерб. Предстоят восстановительные работы. Это в который раз подтверждает: реставрация – дело профессионалов.



**– Влюбить в профессию может только человек, горящий идеями, искренне преданный своему делу. Как проходят ваши занятия со студентами?**

– Порой юноши и девушки хотят расслабиться, где-то недоучить. У меня такие фокусы не проходят. Если выкладываюсь полностью сама, того же требую от молодежи.

Традиционно присутствует живой опрос. А вот во время онлайн-обучения пришлось подкорректировать методику. Просила магистрантов готовить презентации по пройденным темам. Это их увлекало. Находили столько материалов, что мне даже самой было интересно.

На экзамене показываю фотографии архитектурных объектов, которые студенты обязаны знать наизусть. Заставляю вести лекционные тетради и проверяю их при ответе. Предупреждаю: предмет сложный, но интересный, порой даже сказочно интересный, связан с историей, с личностями. Признает только научно подтвержденные вещи, а не байки, привлекающие туристов, которыми пользуются гиды. Работаю с источниками и щедро добавляю новую информацию в лекции. Раздаю иллюстративный материал, чтобы не тратили время на срисовывание чертежей с доски.

**– Какие объекты в Ташкенте нам самим стоит внести в воображаемый «тревожный список»?**

– Например, махалли вокруг комплекса Хазрати Имам. Там есть памятники архитектуры, дома конца XIX – начала XX века. Это большая ценность, нуждающаяся в сохранении. Особая достопримечательность – арык Калькауз. Прежде на нем были водяные мельницы. И сейчас там бесконечные мостики, а когда-то устраивали широкие мосты, на которых находились общественные центры махаллей, чайханы. Очень живописно. И эта аутентичность не должна быть окончательно утеряна. Если реставрировать, не бутафорским, театрализованным способом. По историческим фотографиям, не придумывать ничего нового. Ведь туристы едут за нашей древностью и экзотикой.

**– Какие перспективы видите у сегодняшней реставрации?**

– Возвращение былой мощи реставрационного дела – процесс долгий, но возможный. Очень бы хотелось, чтобы в исторических городах открывались мини-предприятия по изготовлению кирпича, майолики по индивидуальному заказу – отдельно для каждого памятника. Керамические мастерские, где продукция создается медленно, но качественно и профессионально, с учетом химически выявленных для этого конкретного объекта компонентов.

Надеюсь, что с такой поддержкой на государственном уровне архитектурные шедевры Узбекистана обретут надежную защиту.

**Беседовала**
**Людмила ПОЛОНСКАЯ**



Городище Кампыртепа в Сурхандарьинской области (конец IV в. до н.э. – середина II в. н.э.). По мнению некоторых ученых, именно здесь находилась легендарная Александрия Оксианская.

# UzНАЙ!

Пандемия изменила повседневную реальность, закрыв границы и сделав путешествия возможными лишь в режиме онлайн. Спустя год мы постепенно возвращаемся к привычному образу жизни (конечно, соблюдая все профилактические меры) и вновь с интересом поглядываем на путеводители и карты. Возможно, это повод лучше узнать собственную страну, ее древние уникальные памятники.

Отличный повод для их изучения – Международный день памятников и исторических мест, который отмечают 18 апреля. Знаменательная дата установлена ЮНЕСКО с целью привлечения внимания общественности к вопросам защиты и сохранения культурного наследия.



Одна из главных историко-архитектурных жемчужин Андижана – комплекс Джами. Включает мечеть, минарет и медресе. Здания комплекса до сих пор считаются крупнейшими в Ферганской долине и одними из самых больших в Центральной Азии.



*В старинном квартале Гозиен в Бухаре располагается красивейшее здание конца XIX века – дом-музей Файзуллы Ходжаева, известного политического и государственного деятеля.*

*Строение состоит из двух частей: мужской и женской. Каждая комната украшена резным деревом, антикварной мебелью.*

*Узундара – древнейшая крепость IV–III веков до н.э., руины которой обнаружены на территории Сурхандарьинской области. Это своего рода узбекская Великая стена, защищавшая Бактрию от набегов кочевников. Среди главных археологических находок – уникальные монеты эллинистического периода с изображениями Александра Македонского и Антиоха I.*

*Благодаря качеству материалов, используемых при строительстве, пятиметровые каменные стены и спустя две тысячи лет сохранили первозданный вид.*



*Большая археологическая ценность Навои – караван-сарай Рабат-Малик. Во время расцвета Великого шелкового пути здесь останавливались путешественники и торговцы из разных стран, делились впечатлениями и открытиями.*





*С созданием архитектурного комплекса Пир-Сиддик в Маргилане связана интересная легенда. Когда-то здесь жил святой, который, скрываясь от язычников, прятался в пещере, где обитали голуби. Однажды птицы, почувствовав, что может пролиться кровь, свили гнезда у пещеры и замуровали вход. Преследователи прошли мимо…*

*Так пернатые спасли святого, а посвященный ему мавзолей в народе называют «Голубиным». Птицы и сегодня гнездятся у купола, их полет в вечернем небе создает атмосферу сказки и волшебства.*

*Каждому, кто приезжает в Хиву, обязательно следует побывать во дворце Нуруллабая. Летняя резиденция хивинских ханов построена в конце XIX – начале XX веков при участии русских, немецких мастеров. Каждая комната подобна драгоценной шкатулке, украшенной резными узорами, изящными позолоченными орнаментами.*

*Во дворце были установлены фарфоровые печи-камины и роскошные электрические люстры, что являлось новшеством для Хивинского ханства.*





*Мавзолей Мазлумхан Сулу (запад Каракалпакстана) наполовину находится в земле. Выступают лишь купола и портал входа.*

*Памятник датирован первой половиной XIV века, когда торговые города золотоордынского Хорезма достигли расцвета.*



*Самый старый из сохранившихся памятников на территории Ташкента – мавзолей Калдыргач-бия (датируется XV веком).*

*Сооружение из жженого кирпича примечательно композицией и имеет редкий для Узбекистана двойной пирамидальный купол на невысоком двенадцатигранном барабане.*

*Памятник материальной культуры – мост-вододелитель в Самарканде. Возведен при Шейбанидах в начале XVI века. До наших дней сохранилась лишь кирпичная арка.*



# O'ZBEKISTON-QATAR:
# HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI



***So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining arab mamlakatlari bilan munosabatlari sezilarli darajada faollashdi. Xususan, O'zbekiston-Qatar munosabatlari tobora mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda.***

Maydoni bor-yo'g'i 11,4 ming kvadrat kilometr, aholisi 2,6 million kishidan iborat Qatar oxirgi 10-15 yilda dunyoning iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylandi. Hatto butun dunyoga sezilarli salbiy ta'sir o'tkazgan jahon moliyaviy inqirozi ham mazkur davlatning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilolmadi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, hukumat va xususiy sektor tomonidan vaziyat taqozo etgan choralarning o'z vaqtida ko'rilgani shunday ibratli natijaga erishilishini ta'minladi.

Qatar iqtisodiyotining asosini neft-gaz sanoati tashkil etadi. Suyultirilgan gaz eksporti hajmining yildan yilga oshayotgani va eksport geografiyasining misli ko'rilmagan darajada kengayib borayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Iqtisodiy faollikni oshirish va energetika sohasidan boshqa yo'nalishlarni ham rag'batlantirish maqsadida hukumat "Erkin investitsiya zonasi" loyihasini yo'lga qo'ygan. Unga ko'ra, qishloq xo'jaligi, yuqori texnologiyalar, turizm va boshqa sohalarda kichik va o'rta biznes vakillari 20 yilga soliqlardan ozod qilingan.

Qatar 2019-yilda iqtisodiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichi bo'yicha 141 mamlakat orasida 29-o'rinni egalladi. Bu Birlashgan Arab Amirliklaridan keyin mintaqadagi ikkinchi ko'rsatkich hisoblanadi.

AQSh, Saudiya Arabistoni va Eron bilan munosabatlarda muvozanatni saqlagan holda Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnichilik siyosatini yuritishi hamda Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorligi kengashi, Arab davlatlari ligasi va boshqa ko'ptomonlama tuzilmalar doirasida olib borilayotgan faol siyosat Qatarni mintaqadagi eng nufuzli davlatlardan biriga aylantirdi.

Qatar ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, ilm-fanni rivojlantirish va investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatning nafaqat mintaqa, balki butun dunyodagi nufuzi oshdi. Oxirgi paytda Qatarda nufuzli xalqaro siyosiy forumlar va sport musobaqalari muntazam ravishda o'tkazilayotgani, 2022-yilda futbol bo'yicha jahon chempionati ham Qatarda o'tkazilishi buning isbotidir.

Qatar o'zining qulay geografik joylashuvi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlarining Arab dengizi orqali xalqaro transport-kommunikatsiya yo'laklariga chiqishiga imkon yaratishi mumkin. Shu maqsadda O'zbekiston tomoni O'zbekiston–Turkmaniston–Eron–O'mon Sultonligi–Qatar transport yo'lagini yaratish loyihasini ilgari surgan edi.

O'zbekiston Respublikasi va Qatar o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1997-yilda yo'lga qo'yilgan. 2010-yil 23-24-noyabr kunlari O'zbekiston delegatsiyasi Shayx Hamad bin Xalifa taklifiga binoan Qatarga rasmiy tashrif buyurgan. O'shanda tomonlar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport-kommunikatsiya, gumanitar sohadagi hamkorlik va ikki tomon uchun manfaatli bo'lgan mintaqaviy hamda xalqaro masalalarni muhokama etgan.

Mamlakatimiz va Qatar hamkorligining bugungi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilovning 2021-yil 10-11-aprel kunlari mazkur davlatga amaliy tashrifi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tashrif O'zbekiston-Qatar tashqi siyosiy yo'nalishida yangi qadam bo'lib, ikki tomonlama aloqalarni sezilarli darajada kengaytirdi. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirining Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuvida muhokama etilgan masalalarning ko'lami ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Muzokaralar jarayonida O'zbekiston-Qatar munosabatlarining hozirgi holati, rivojlanish istiqbollari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi o'zaro aloqalarning dolzarb jihatlari, tomonlarning o'zaro siyosiy muloqotini faollashtirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha afg'onlararo inklyuziv muzokaralarni chuqurlashtirish kabi dolzarb muammolarning ko'rib chiqilgani ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat bermoqda.

Qatar Bosh vaziri o'rinbosari, Tashqi ishlar vaziri Shayx Muhammad bin Abdulrahmon bin Josim Ol Soniy bilan o'tkazilgan muzokaralarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, turizm, madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlarning holati va istiqbollari, tomonlarning xalqaro tuzilmalar doirasidagi o'zaro aloqalari, O'zbekiston-Qatar hamkorligiga ko'p qirrali mazmun bag'ishlash, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarni yo'lga qo'yish kabi masalalar muhokama etildi.

Savdo va sanoat vaziri Ali bin Ahmad al-Kuvariy bilan uchrashuvda tomonlar savdo aloqalarini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, qo'shma iqtisodiy tadbirlarni o'tkazish, savdo va investitsiyaviy aloqalarni faollashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shma investitsion loyihalarni tuzish, O'zbekistonning turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr almashdilar.

Ma'lumki, Qatarda "Tolibon" harakatining siyosiy vakolatxonasi faoliyat yuritadi. Tashrif davomida uning rahbari mulla Barodar Axund bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Afg'onistonda barqaror va uzoq muddatli tinchlik o'rnatish maqsadida tinchlikka asoslangan siyosiy jarayonni mustahkamlash bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. "Tolibon" harakati rahbariyati vakili O'zbekistonning Afg'onistonda transport va energetika sohalarida muhim iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarini yuqori baholagani ham diqqatga sazovordir. O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy yirik loyihalar Afg'onistonning nafaqat iqtisodiy rivojlanishi, balki mamlakatda to'laqonli tinch siyosiy jarayonni boshlash uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi ta'kidlangani ham tashrif davomida erishilgan e'tiborli natijalar qatoriga kiradi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilovning mazkur amaliy tashrifi Fors ko'rfazida joylashgan nufuzli arab davlatlaridan biri Qatar bilan aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishni ko'zlagan tashqi siyosiy qadam sifatida baholashga munosib voqea bo'ldi.

**Bahodir XO'JAYEV,**
**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi**

MULOHAZA

# Poytaxtning "poygachi" avtobuslari



***Toshkentga kelganimga ikki oydan oshdi. Avvaliga gavjum shaharning yo'llari ancha adashtirdi. Serqatnov ko'chalardagi avtobuslar qatnovini ham tushunib olish biroz qiyinchilik tug'dirdi. Ozroq vaqt o'tgach esa, ancha moslashib oldim. Chalkashlik deb baholaganlarim bari batartib, ma'lum qonuniyat asosida shakllanganiga shohid bo'ldim. Har tong bekatda avtobus kutaman, manzilga yetgach tushib qolarkanman, ulov ichiga ko'z yugurtiraman. Ko'plar doimiy hamroh yo'lovchilar: ko'zoynak taqqan qizaloqni yetaklagan juvon, qora portfel ko'targan, bo'ynidagi salibi doim osilib turadigan qariya, ko'zlari telefon ekranidan uzilmaydigan yigitcha...***

Avtobus bekatlardan bekatlarga imillagancha, shoshmasdan yuradi. Ammo har qachon tig'iz bu kentning serhafsala avtobuslari ham, ba'zan besabrlik qilar ekan. Ancha avval tarmoqlarda tarqalgan "shumaxer" avtobus haydovchilarining qilmishini istehzomuz qabul qilgandim. Biroq bu safar o'z ko'zim bilan ko'rgan avtobuslar poygasi tamoman hayratga soldi. Tushundimki, bu masala haqida jiddiy bosh qotirish kerak. Axir, manzilga eson-omon yetib olishni ko'zlayotgan yo'lovchilarning havotirlari ham avtobus haydovchisining gardanida emasmi?

Toshkent megapolisida yengil mashinalarning tezlikni oshirgani qancha ko'ngilsizliklarga sabab bo'lgan bir vaqtda, jamoat transportlari haydovchilari o'zini Dubayning I toifa yo'lida Ferrari boshqarib ketayotgandek tutishi ayanchli va xavotirli. Lekin avtobus haydovchilarining bu shakl bahslari ko'ngilxushlik uchun emas, ko'p hollarda yo'lovchi talashish oqibatida ekani, bekatlarning tuzilmasi, yo'nalishlarning, grafikning to'g'ri belgilanmagani bo'lishi ham mumkin. Bu haqda mutasaddilar jiddiy o'ylashi kerak. Nima bo'lgan taqdirda ham avtobus haydovchilari ularga bildirilgan ishonchga munosib harakat etishlari zarur. Zotan, boshqarayotgan transportidagi har bir yo'lovchi uchun shaxsan javobgardirlar.

Shular haqda o'ylab avtobusim kelganini payqamay qolibman. Doimiy hamrohlarim qatoriga qo'shilarkanman, kata-katta oynalar ortidan mo'ltiragan murg'ak ko'zlarning, ajin bosgan qovoqlar tagidan termulgan umidbaxsh nigohlarning taqdiri rul oldidagi o'rta yosh erkakka bog'liqligi haqida xayol qilaman. Avtobus bo'lsa, mening xayollarimdan boxabardek sokin borardi.

**Jalol MIRZOZODA,**
**O'zJOKU talabasi**

# “Temur tuzuklari”da ustoz martabasi

***Mamlakatimizda 1997-yildan buyon 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” sifatida keng nishonlanayotgani xalqimizning ustoz-murabbiylarga bo‘lgan hurmat-ehtiromining yorqin ifodasidir. Davlat rahbarlarining ham ustozlarga munosabati tahsinga loyiq. Jumladan, birinchi Prezidentimiz I.Karimov “Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir” deb ta’kidlagan edi.***




Yoki bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi gaplariga e’tibor bering: “Bizning barcha sa’y-harakatlarimiz “O‘zbekistonda eng obro‘li inson muallim bo‘lishi kerak” degan g‘oyani amalga oshirishga qaratilmoqda. Buning uchun davlat va jamiyat tomonidan qancha mablag‘, resurs va imkoniyatlar zarur bo‘lsa, barchasini safarbar etamiz”...

Rivoyatlarga ko‘ra, buyuk sarkarda Aleksandr Makedonskiydan “Nechun Arastuni (Aristotel) otangizdan ortiq izzat qilasiz?”, deb so‘raganlarida, Iskandar Rumiy: “Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko‘tardi. Ya’ni, otam meni dunyoga kelmog‘imga sabab bo‘ldi. Ustozim ilm va odob o‘rgatib, martaba va izzatimning ortmog‘iga sabab bo‘ldi”, deydi. Har bir tarixiy davrdagi buyuk siymolarning shakllanishi va yuzaga chiqishi bevosita ularning ustoz va murabbiylari bilan bog‘liq.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karim yoxud hadisi shariflarda ham ustoz-u murabbiylarga munosabat, hurmat takror va takror ta’kidlangan. Imomi A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan shunday rivoyat qilinadi: “Ustozim Hammodning hurmatlari uchun u zotning uylari tomonga oyog‘imni uzatmaganman. Holbuki, u zotning uylari bilan mening uyim orasida yettita ko‘cha bor edi. Hammodning vafotlaridan so‘ng qachon namoz o‘qisam, har safar, albatta, ota-onamga qo‘shib, u zotga ham Allohdan mag‘firat so‘raganman”.

Tarixiy manbalarda Amir Temur yuksak tarbiyali va kuchli bilimga ega shogird sifatida e’tirof etilgan. Sohibqironning uch shayxga ixlosi juda baland bo‘lib, ularni o‘ziga pir (ustoz) sifatida ko‘rgan. Har ishni boshlashdan oldin ulardan maslahat olgan. Bular – Shamsiddin Kulol, Sayyid Baraka va Zayniddin Tayobodiylardir. Amir Temur saltanat ishlarida, davlat boshqaruvida, din yoinki boshqa masalalarda ikkilanib qolsa, albatta, ustozlariga maktub yo‘llab, to‘g‘ri yo‘lni tanlashda maslahatlashgan. Masalan, Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan Tug‘luq Temurxon Movarounnahrga yurish qilganda, ko‘plab mahalliy hukmdorlar Xuroson tomonga chekinadi. Shunda Sohibqiron ikkilanib, piridan maslahat so‘raganida, unga quyidagi mazmunda javob maktubi keladi: “Tug‘luq Temurxonning oldiga qochg‘il (borgil mazmunida) va qo‘lidagi o‘q-yoyini tortib olg‘il”. Amir Temur ustozi ta’kidlagan maslahatga amal qiladi va qisqa fursat ichida mo‘g‘ullarni yengib, bu hududni tark etishga majbur qiladi.

Davlat boshqaruvi tizimida o‘sha davrda butun dunyoga namuna bo‘lgan Amir Temurning saltanat ishlarida doimo to‘rtta narsaga amal qilishi ham bevosita uning ustozi bilan bog‘liq: Pirim, Zayniddin Abubakr Tayobodiy menga yozmishlarkim: “Abulmansur (lug‘aviy ma’nosi: “zafar, g‘alaba qozonuvchi”, ulamo va mashoyixlar tomonidan Amir Temurga berilgan faxrli nom) Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) (o‘zing bilan) kengash; 2) (boshqalar bilan) mashvarat-u maslahat ayla; 3) hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkor bo‘l”. Sohibqiron, ba’zi hollarda ustozlariga nisbatan itoatkor ham bo‘lgan. Buni “Temur tuzuklari”da keltirilgan pirining maktubiga javoban Amir Temurning bildirgan ushbu so‘zlarida ko‘rishimiz mumkin: “Pirimning ushbu maktubi menga yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to‘ra va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Saltanatim martabasi bo‘lmish to‘ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”. Bulardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur har ishni ustozlari bilan bamaslahat amalga oshirgan. Ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lganligi uchun ham Sohibqiron tuzgan davlat rivojlangan va turli ichki xiyonatkorliklardan yiroq bo‘lgan.

Shu bilan bir qatorda, Amir Temurni talabchan, yetuk saviyaga ega va mehribon ustoz sifatida ham ta’kidlash joiz. Amir Temurning jami 313 nafar shogirdi bo‘lgani manbalarda aytiladi. Hatto, buyuk sarkarda, Temur va temuriylar saltanatining sadoqatli jangchisi amir Shohmalikni ham Amir Temur tarbiyalagan. Uni yoshligidan kuchli harbiy salohiyat va sadoqatga o‘rgatgan.

Hozirgi kunda butun dunyoda ustoz va murabbiylarga e’tibor va e’tirof kundan kunga kuchaymoqda. Xususan, O‘zbekistonda. Zero, o‘qituvchilar turli ijtimoiy muhitda ulg‘ayayotgan bolalarning har biriga alohida e’tibor qaratib, ularga umumiy-namunaviy ta’lim-tarbiya beradi. Shuning uchun ham ustozlarni doimo ardoqlamoq lozim. Zero, ustoz va murabbiylar e’zozlangan zamon va makonda yurtning kelajagi porloq, yoshlarining ilmi va dunyoqarashi yetuk bo‘ladi.

**Zavqibek MAHMUDOV,**
**O‘zR FA Tarix instituti stajyor-tadqiqotchisi,**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajyor-o‘qituvchisi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti 30 yoshda*



# BUNYODKORLIK VA AQL-IDROKNING ASOSI

***Kitob — insonning yaqin do‘sti, beminnat maslahatchisi, aql va zakovat qayrog‘i, ilm va bilimning chashmasidir.***

Ma’lumotlarga ko‘ra, taxminan besh yarim ming yil ilgari paydo bo‘lgan “Press” deb nomlangan eng qadimiy qo‘lyozma papirus yordamida yozilgan. Dunyodagi ilk kitoblar bundan ikki ming yil avval yaratilgan hamda ular daraxt va sham eritmasidan tayyorlangan. Qadimgi davrda kitobga asarning sifati va mazmuniga qarab baho berilgan. Shu sabab hozirgi kunga qadar insonlar qalbida kitobga mehr-muhabbat, uni qadrlash kabi xislatlar o‘zgarmagan.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusda ham aholi, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ular orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan va bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Yosh kitobxon” respublika tanlovi, turli adabiy-ma’rifiy kechalar orqali nafaqat yosh avlod, balki kattalar ham yana bir bor kitob o‘zining yaqin do‘sti va beminnat yordamchisi ekanini anglab yetdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan “Adiblar xiyoboni”ning barpo etilishi, buyuk va zabardast yozuvchi-shoirlarning boy adabiy merosini keng ommalashtirish maqsadida ularning oliy ta’lim muassasalariga biriktirilishi yosh avlod o‘rtasida nafaqat badiiy adabiyotga, balki adiblar hayoti va ijodiga qiziqishni ham oshirdi.

Shuningdek, yurtimizda elektron nashrlarni ko‘paytirish, mashhur asarlarning elektron shakllarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi globallashuv zamonida aksar yoshlar kitoblarni o‘z mobil telefoni yoki boshqa gadjetlar orqali o‘qishni ma’qul ko‘rmoqda.

Yosh avlod o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilishda kutubxonalarning o‘rni ham katta. Hududlarda turli kutubxonalar barpo etilmoqda, oliy ta’lim muassasalarining Axborot-resurs markazlari faoliyati takomillashtirilib, zamonaviy adabiyotlar, badiiy asarlar bilan boyitilmoqda. Xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida bu yo‘nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

300 mingdan ortiq kitob, qo‘llanma, darslik va badiiy adabiyotlar fondiga ega markazning maxsus library-tsul.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari yaratilgan bo‘lib, ular orqali nafaqat talabalar, balki professor-o‘qituvchilar, tashqi foydalanuvchilar ham kutubxona fondidagi o‘zbek, rus va ingliz tilidagi turli huquqiy, badiiy, ijtimoiy yo‘nalishdagi asarlar, qo‘llanmalarni topishi mumkin. ARM fondida ikki asrlik tarixga ega kitoblar ham bor.

Bugungi kunda TDYU Axborot-resurs markazi o‘z fondini yanada boyitishda faqat mahalliy nashriyotlar bilan chegaralanib qolmasdan, Glazgo universiteti, Nagoya iqtisodiyot universiteti, Boston huquqiy maktabi, Finlandiya universiteti bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va ularning turli huquqiy adabiyotlari bilan boyitilgan. Shu bilan birga markaz har yili 100 dan ortiq nomdagi mahalliy va xorijiy (Rossiya va yevropa mamlakatlarida chop etiladigan) davriy nashrlarga obuna bo‘ladi.

ARM tomonidan talabalar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, ularda mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida turli tanlov va loyihalar o‘tkaziladi.

Shuningdek, ARMda Westlaw, LexisNexis, Springer, Web of Science, Scopus, Polpred.com, EBSCO kabi ma’lumotlar markazlari bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan va bu yerdagi barcha kompyuterlar yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulangan, ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun NVDA dasturi o‘rnatilgan. Markaz Germaniyaning Dyusseldorf shahridagi universitet kutubxonalariga xalqaro assotsiatsiyasi a’zosi hisoblanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi yurtimizda kitobxonlikni ommalashtirishdek ezgu harakatga o‘z hissasini qo‘shishga bel bog‘lagan. Zero, Sohibqiron Amir Temurning ta’rifi bilan aytganda, kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir.

**Mohira SHAMAQOVA,**
**TDYU Axborot-resurs markazi yetakchi mutaxassisi**

# XUDO BERGAN ADIBIMIZ

XOTIRA



***Oilamizda bir odat bor: yangi yil oldi dadam hammamizga sovg‘a ulashadi. Shundanmi yangi yil kelishiga yaqin qolsa, qorboboni emas dadamning sovg‘alarini kutamiz. O‘sha yangi yil ham hech esimdan chiqmaydi. To‘rtinchi sinfda o‘qib yurgan paytlarim edi. Dadam qo‘llarida sovg‘alar bilan kirib keldi. Men va ukalarim quvonchdan sovg‘alarni tezroq olishni xohlardik. Ikki ukamga o‘yinchoq, menga esa, muqovasida bir bolakayning qandaydir mahluqning ustiga minib olgan surati bor ikkita kitob tutqazdi. Hali hech kimdan bunday sovg‘a olmaganimgami yoki bu sovg‘a avvalgilaridan noodatiy bo‘lganigami biroz kitoblarga qarab turdim.***




Xayolimda turli xil shirinliklar-u o‘yinchoqlar olaman, degan bolalarcha o‘y bor edida. Ammo dadamning yuzidagi tabassum va xayolimga kelgan shaxsiy kutubxona yaratish haqida fikrlar meni sevintirib yubordi. Kitoblar uchun dadamga rahmat aytdim va o‘sha kuniyoq ularni o‘qishni boshladim. Kitobning hajmi meni o‘ylantirmadi. Chunki maktabdan beriladigan o‘qish darsliklarini ham ta’tillarda o‘qib tugatib qo‘yardim. Mutolaani boshlarkanman, go‘yo yangi do‘st bilan tanishayotgandek bo‘ldim. Chunki asar qahramoni o‘zini men bilan yuzma-yuz ko‘rib turgandek tanishtirardi.

“Mening ismim Hoshim, familiyam Ro‘ziyev, erkalab Hoshimjon desangiz ham bo‘laveradi”.

Romanni o‘qib, do‘stlarim safi yana bittaga ko‘paygandek bo‘ldi. Bobomning yoki o‘rtoqlarimning uyiga borsam ham kitobni qo‘limdan qo‘ymasdim. Bir kuni kichik amakim kitobimni ko‘rib “12 yosh bolaga roman o‘qish qiyinlik qilmaydimi? – dedi va indamaganimni ko‘rib, – Men ham o‘qiganman, zo‘r kitob!” deya maqtadi. Bu kitobga bo‘lgan qiziqishimni yanada kuchaytirdi. Kitobning birinchi qismini bir haftaga bormay tugatdim. Onam adabiyot o‘qituvchisi bo‘lgani uchun o‘qigan kitobim, yod olgan she’rlarim haqida suhbatlashar edik. Onamga kitob haqida xulosa va taassurotlarimni aytib berdim. Onam mening to‘lib-toshib gapirishimni mamnun bo‘lib eshitdi. Oxirida: “Qizim, asarni kim yozgan ekan o‘zi?”, – deb so‘radi. Qarang, kitobni tugatibman-u, muallifiga e’tibor bermabman. Kitobning birinchi betini ochib, “Xudoyberdi To‘xtaboyev” – deb javob berdim. Onam Xudoyberdi To‘xtaboyev hayoti va ijodi haqida gapirib berdi. Kitobning ikkinchi qismini ham tugatdim. Yozuvchiga, kitobga bo‘lgan mehrim tovlanib borardi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha”, “Mungli ko‘zlar” kitoblarini ham o‘qib chiqdim. Bu kitoblar bolalik olamimga yanayam beg‘uborlik qo‘sha oldi. Bolaligim “Sariq devni minib”dagi Hoshimjondek beg‘ubor, “Mungli ko‘zlar”dagi Zafar, Akbar kabi samimiy, “Besh bolali yigitcha” asaridagi Hoshimjonning umuman teskarisi bo‘lgan, hayot qiyinchiliklari erta boshiga tushgan Orifjonning sarguzashtlari bilan o‘tdi.

Bir kun ushbu asarlar muallifi bilan uchrashib, u kishining suhbatini olaman, deb maqsad qildim. Jurnalistika bilim yurtiga o‘qishga qabul qilingan yilim, Toshkentda katta kitob yarmarkasi bo‘layotganini eshitdim. Kitob xarid qilish niyatida bordim. Kitobxonlar orasidagi Xudoyberdi To‘xtaboyevni ko‘rib sevindim. Yonlariga borishga biroz xijolat bo‘ldim. Suhbatlashgim keldi. Ammo orzu-maqsadlarning tasodifan amalga oshishi ham insonni bir lahzada shoshirib qo‘yarkan. Ularning yoniga jurnalist bo‘lib: “Bobo, siz haqingizda ko‘rsatuv qilmoqchiman”, deb boraman, degan niyatda chetdan kuzatib turdim. Ularning samimiy gapirishi, kitobxonlarning savollariga erinmay javob berishi e’tiborimni tortdi. Haqiqatda boladay beg‘ubor inson ro‘paramda turardi... Ammo vaqt hamma narsaga hukmron. Yonimizdagi insonlarni ertaga ko‘rmasligimizni tushuntirib qo‘yarkan. Bobomni ko‘rganda qilgan niyatim armon bo‘lib qoldi. Sevimli yozuvchimizning vafoti haqidagi sovuq xabarni eshitib, bolaligimni yo‘qotgandek bo‘ldim...

O‘qishdan ijara uyimga qaytayotib bir guruh maktab o‘quvchilarining “Hoshimjon”ning sarguzashtlari haqida suhbatlashib ketayotganiga guvoh bo‘ldim. Ular kuni-kecha sevimli yozuvchisi bu yorug‘ olamni tark etganini, ehtimol bilmas, bilsa ham qanday yo‘qotishga duch kelganini his etmas... Lekin ular kitob — Xudo bergan adibimiz asarlarini o‘qiyapti!

**Mashhura NASRIDDINOVA**

TAASSUF

Ishlardan bo‘shab telegram tarmog‘iga kirsam, ko‘p yangi xabarlar kelibdi. Birma-bir o‘qishga tutindim. Yurtimizdagi kunda ro‘y bergan yangiliklarni, havaskor ijodkorlarning so‘nggi shig‘irlarini o‘qib bo‘lgach, do‘stlarim yo‘llagan xatlarga navbat yetib keldi. X. ismli tanishimdan kelgan xabarni ochdim. Do‘stimning yozishicha, tarmog‘ida yangi “tanishlar” paydo bo‘libdi va bularning aksariyati qizlar emish. Do‘stim gapga chechan, ziyrak deb bilgani uchun (tag‘in maqtanyapti deb o‘ylamang), mendan maslahat so‘rabdi. Birozdan so‘ng aloqaga chiqib, “maslahat oshi”ni pishirib oldik. Unga yozgan “notanishlar”dan ba’zilarining tarmog‘ini yana bir boshqa o‘rtog‘imga jo‘natib, o‘zim aytishim bilan unga yozishini uqtirdim.

# Telegramdagi “go‘zal” “erkak”



“O‘zini “Beautiful” (“go‘zal”) deb nomlagan notanish tarmoq egasidan “salom” degan xabar keldi. Alik oldim. Xabarim birdan o‘qildi. “Uzr, kech bo‘lganda bezovta qilmadimmi?” degan “siyqasi chiqqan” javob keldi. Nima xizmat deya, o‘zini tanishtirishini so‘radim.

– “Biz tanish emasmiz. Shunchaki, sizni X. nomli guruhdan topdim. Telegramga qo‘ygan rasmingiz e’tiborimni tortgani uchun yozyapman”, degan xabar keldi. O‘qimay kuzatdim.

– “Siz X. joyda o‘qiysizmi? Yutuqlaringizni ko‘rib havasim keldi. Shuning uchun siz bn tanishmoqchiydim”. Shunga o‘xshagan imlo xatolarga boy bir talay “yangi” nomalar keldi.

Maqsadning ulkanligini qarang. Savollariga qisqagina qilib “ha”, “hmm” muqobilidagi javoblardan nariga o‘tmadim. Keraksiz insonligini his etgan zahotiyoq “qora ro‘yxat”ga solmoqchi bo‘lib turganimda, to‘satdan rasm jo‘natib qoldi. Sochlari uzun, ko‘zlari tim qora, yaxshigina “chaplangan”, xullas, bir ko‘rishda o‘ziga “jalb qiladigan” qizning surati.

– “Bu men. Ismim Durdona. Yoshim 19 da”.

U tomonidan shu kabi qisqa tanishtiruv keldi. Yozishmalarini o‘rtog‘im suratga olib menga jo‘natyapti. Yigitlarning psixologiyasini inobatga olgan holda “notanish qizlardan” xabar kelsa, birdan yozishib, tanishib ketadi, deb o‘ylagan chog‘i. Menda biroz shubha uyg‘ondi. Nahotki, qizlar o‘z-o‘zidan o‘zi haqidagi axborotni tanimagan-bilmagan odamiga taqdim etsa? Yoki bu do‘stimni kutib turgan “o‘yin”mikan? Ko‘nglimga kelgan shubhalarga oydinlik kiritish uchun o‘rtog‘imga “Beautiful”-ga endi yozsang bo‘ladi” degan xat yubordim. 5 daqiqa o‘tar-o‘tmas bizga ma’lum “ssenariy” bo‘yicha o‘rtog‘imga ham yozibdi. Biroq ism, yosh o‘zgargan. Suhbatni davom ettirishni, uning raqamini olishni do‘stimga uqtirdim. Qiz “tuzoqqa ilingan”lardan “yangisi” deb o‘ylagan shekilli, raqamni bermagan, ma’lum miqdorda “paynet” summasini ham so‘ragan, aytish nojoyiz bo‘lsa hamki do‘stimga tuni bilan “yoqimli” suhbatni ham va’da qilgan.

Yoshlik hamda g‘o‘rlikka yo‘ymang-u, do‘stimga aytilgan miqdorda telefon raqami hisobiga pul tushirishini aytdim, pul ketsa ham bu masalaning oxiriga yetmoqchi, uni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. O‘sha raqamga “paynet” ham qilib qo‘ng‘iroq qildik. Taassuf bo‘lsinkim, telefonni “erkak” ko‘tardi. Raqamni bizga qiz bola bergani hamda hisobiga pul o‘tkazganimizni aytdik. Hech qanday pul tushmagani va bu raqamni ancha yillardan buyon o‘zi ishlatishini aytib go‘shakni qo‘ydi. Birdan tarmoqqa kirsam, ikki do‘stim ham “qora ro‘yxat”dan joy olganini yozib qolishdi. Ketgan pulga achinish kayfiyatini ifodalaydigan “smile” yuboribdi.

Ana sizga tijorat-u mana sizga pul topish! Dilingni xufton qiladigan bunday holatlarni ko‘rib “ehh, yashavor, “erkak” deging keladi.

Shuncha narsaga aqli yetgan “ishbilarmonlar”, bilakdagi kuchni telefon klaviaturasidagi harflarni terishga emas, haqiqiy yigitga xos ishlarga sarflamagani achinarli. Ha, do‘stlarim bilan “Beautiful”lar asli kim ekanini bilib oldik. Bizni chuv tushirgan “akaxonimiz” shu arzimagan pulga g‘ururini sotganini o‘yladimikan?!

**Quvonchbek G‘AYBULLAYEV,**
**O‘zDJTU talabasi**



MENING FIKRIM

# MAKTABGA BORAYMI YO repetitorga?!

**Universitetga kirish, "talaba" degan nomga sazovor bo'lish har bir o'quvchining orzusi. Uyqusiz tunlar, darsdan chiqib darsga qatnashlar, bayramlar-u to'y-hashamdan voz kechib faqat o'qish va uqish bu maqsadga yetishning yagona to'g'ri yo'lidir.**

Hozir oliy ta'limga o'qishga kirish uchun, albatta, repetitorga borish kerak. Aks holda urinishlar bekor ketadi. Buni qo'shimcha darsga qatnab talaba bo'lganlar yaxshi biladi. Aslida biz oyiga qancha-qancha pul sarflab o'rganyotganimiz maktab o'quv dasturidagi bilimlardir. Maktabda bizga o'rgatilgan (o'rgatilishi kerak bo'lgan!) mavzularni, bilimlarni repetitorga borib o'zlashtiramiz! Buning sababi ta'lim tizimimizdagi oqsoqlikka borib taqaladi.

Ta'lim tizimining "boshi" maktab. Bola kelajagi uchun muhim qadam maktabda qo'yiladi. Shu davrda yozish-chizishni o'rganadi, bilim olish va uni kerakli joyda, kerakli maqsadda ishlata bilish ko'nikmalarini o'zlashtiradi, kasb tanlaydi, kelajagiga mos oliy ta'lim dargohini belgilaydi. Ya'ni o'quvchi maktabni bitirganida oliy ta'limga kirish uchun tayyor bo'lishi kerak. Har tomonlama: bilim, saviya, tarbiya, psixologik jihatlardan yetuk bo'lishi lozim. Ammo bizda...

Bu muammoning bir qancha sabablarini keltirish mumkin. Birinchidan, maktab darsliklaridagi mavzular yuzaki, boshlang'ich tushuncha berish uchungina xizmat qiladi. Ona tili darsida o'quvchilar kitobdagi mashqlarni ko'chiradi, fizikada formula yodlaydi, lekin uni qachon, qayerda ishlatishni bilmaydi, matematikada bir xil qolipdagi misollarni yechadi, biologiya, adabiyot fanlaridan daftarni to'ldirib konspekt yozadi. Lekin ko'pincha nima yozganini o'zi ham bilmaydi.

Juda ko'p o'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqtira olmaydi yoki bunga intilmaydi. Ustozlar faqat kitobda berilgan qoidalarni o'qib berish bilangina qanoatlanmay, o'quvchilarni qo'shimcha ma'lumotlar, qiziqarli mashg'ulotlar bilan darsga jalb qilsa, darsni direktor kuzatganda yoki komissiya kelganda o'tiladigan sifatli darslar doimiy jarayonga aylantirilsa, ta'lim sifati ancha yaxshilangan bo'lardi.

Bundan tashqari, oliy o'quv yurtiga kirish niyati bo'lgan har bir yosh o'z maqsadi yo'lida harakat qilsa, o'zi tanlagan yo'nalishi bo'yicha fanlarga katta e'tibor qaratib, yaxshi o'zlashtirib borsa, repetitorga ehtiyoj qolmaydi. Ko'p hollarda, maktab ma'muriyati o'zlari yetarlicha bilim bera olmagani yetmaganday o'quvchi-abituriyentlarning repetitorga borishiga ham to'sqinlik qiladi. Aniqroq aytganda, davomatga birinchi darajali vazifa sifatida qaraydi. Ammo buning imkoni yo'q. Kamida 6 soatlik dars 13:30-14:00 oralig'ida tugaydi. O'quv markazlaridagi saboqlar 14:00 da boshlanishini inobatga olsak, maktab darslariga zarar yetkazmasdan qo'shimcha mashg'ulotga qatnab bo'lmaydi. Kechki vaqtlar dagi darslar esa o'quvchilarga juda noqulaylik tug'diradi.

Xullas, maktablar repetitorga borishga hojat qoldirmaydigan qilib sifatli ta'lim berishi kerak, bunday qila olmas ekan, o'quvchilarning qo'shimcha mashg'ulotlari uchun qulay bo'sh vaqtlarni yaratib berishi zarur!

**Lobar QODIROVA,**
**O'zJOKU talabasi**

BIZNES PSIXOLOGIYASI

# *Hech qachon* chekinmang!



**Doniyor ASLANOV, "Mr.Aslanov" o'quv markazi asoschisi:**

— Til o'rganishga qiziqishim bolaligimda paydo bo'lgan. Hali maktabga ham chiqmagan kezlarim inglizcha so'zlarni bilardim. Onam ingliz tili o'qituvchisi bo'lgani uchun boshlang'ich ko'nikmalarni bergan. Maktabda ustozlarimning "yaxshi bilasan" degan so'zlari meni yanada ruhlantirar edi.

Maktabni tamomlaganimdan so'ng men uchun eng sinovli davr boshlandi. Nufuzli bilim yurtlaridan biri — O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga hujjat topshirib, kira olmadim. Lekin har yomonning bir yaxshisi bor — bu yillar menga sohani chuqur o'rganishim uchun imkon berdi. O'sha vaqtlarda uydan pul olgim kelmasdi. Shu bois abituriyentlarni ingliz tilidan tayyorlaydigan ustozga shogird tushdim. Ustozim tajribasini o'rganish asnosida o'zim ham o'quvchilarga dars bera boshladim. Abituriyentlarning natijalari yaxshilanib borayotgani menga rag'bat bo'ldi. Asta-sekin ustozlik maqomiga ko'tarila boshladim. Birinchi maoshimga 40 ming so'm olgandim. Nihoyat 2014-yilda universitetga qabul qilindim. Bu mening maqsadlarim sari qo'yilgan ilk qadam edi.

Orzular ro'yobi sizni undanda katta marralar sari yetaklar ekan. Keyinchalik o'zimning o'quv markazimni ochish istagi paydo bo'ldi va kichikroq o'vuq markazini tashkil etdim. Lekin noto'g'ri hisob-kitob va tajribasizligim pand berib, bankrot bo'ldim. Bu mening shashtimni qaytarmadi. Faqat intilish va o'rganish sabab natijaga erishish mumkinligini bilganim uchun 2016-yilda hozirgi "Mr. Aslanov" nomidagi ikkinchi o'quv markazini ishga tushirdik. Aynan mana shunda nom, brend katta rol o'ynashini bildim. Universitet darslari hamda markazdagi ishlarni birga olib borishning o'ziga yarasha qiyinchligi ham bor edi.

Ish faoliyatim davomida yuzlab o'quvchilarimiz universitetlarda talaba bo'ldi. Mana shu mening eng katta yutuqlarimdan biri deb hisoblayman. Yana bir quvonarli jihat shundaki, hozirgi kungacha tayyorlagan o'quvchilarimizning 20 foizi viloyatlar bo'ylab o'z o'quv markazlarini ochgan.

Qo'lga kiritgan eng katta yutuqlarimdan biri — otamga mashina sovg'a qilganim. Dadam "06" "Jiguli"da taksichilik qilar edi. Bir kuni yo'lovchilardan biri eski mashinaga chiqishni istamaydi. Bu albatta, dadamning dilini og'ritgan edi. Buni eshitib ko'zimga yosh keldi va: "Dada, ozroq sabr qiling, o'zim sizga yangi mashina olib beraman", deb ahd qilgan edim. Xudo qo'llab, 2018-yilda dadamga "Lasetti" olib berishga muvaffaq bo'ldim.

O'tgan 2020-yil bahorda boshlangan pandemiya faoliyatimizda noqulayliklarni keltirib chiqardi. Lekin biz irodamizni ishga solib, faoliyatimizni masofaviy shaklda davom ettirdik. Bu vaqtdagi daromadim o'rtacha hisobda oyiga o'n million so'mni tashkil etdi. Darslar masofadan bo'lishiga qaramay o'quvchilar sifatli ta'lim oldi, deb ayta olaman. Chunki o'sha abituriyentlarning aksari universitetlarga kirdi. Hozir ham masofaviy, ham an'anaviy shaklda mashg'ulotlar olib boryapmiz. Olgan bilimlarim asosida hozirgi kunda "SEFR" va "IELTS" sertifikatlari uchun o'quv qo'llanmalar yaratdim. Bu qo'llanmalar yoshlarga foyda keltirayotganidan g'oyatda xursandman.

Bu sohaga qiziquvchi yoshlarga pulning ortidan quvmasdan, sabr bilan tajriba orttirishlarini maslahat bergan bo'lardim. Demak, hech qachon ortga chekinmay faqat olg'a intilishimiz kerak. Zero, muvaffaqiyat siri hech qachon chekinmaslikdadir.

**Sevara BAXTIYOROVA**
**yozib oldi.**

Yusubov Muzaffar Alimbayevichga Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan 2008-yil 16-iyunda berilgan B №026814 raqamli bakalavr diplomi va uning ilovasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR:
Jamshid MUSURMONOV

DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-455
Adadi – 589
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02